




BOLALAR UCHUN
ENSIKL^OPEDIYA

GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR



THE PLATE
OF SAILING FOR
the discovery of
a Passage into the
South Sea.

DAVR.
NASHRIYOTI

911-0553
M/3

**Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

Ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR



16
18
20
22
24
26
28
30
32
34
36
38
40
42
44
46
48
50
52
54
56
58
60
62
64
66
68
70
72
74
76
78
80
82
84
86
88
90
92
94

•DAVR NASHRIYOTI•

TOSHKENT



moyi, qular va bosqichlari	Shimoliy Amerikaning inglizlar va fransuzlar o'rtasida qaytadan taqsimlanishi.....	54
Rossiyalik kashfiyotchilar	56	
Komandor Bering.....	56	
Kruzenshternning dunyo bo'ylab sayohati	58	
Janubiy materikning kashf etilishi	60	
P. P. Semyonov tomonidan Tyan-Shanning tadqiq etilishi	62	
N. M. Prjevalskiy Markaziy Osiyo tadqiqotchisi	64	
XVIII-XIX asrlardagi g'arbiy yevropalik sayohatchilar	66	
Jeyms Kuk – buyuk sayohatchi.....	66	
Aleksandr Gumboldt – sayohatlar ishqibozি	68	
Jon Franklinning izsiz yo'qolgan ekspeditsiyasi	70	
Hindixitoarning unutilgan ibodatxonaları	72	
Devid Livingston – buyuk Afrika tadqiqotchisi.....	74	
Qutbni tadqiq qilish	76	
Shimoli-g'arbiy o'tish yo'lini izlash.....	76	
Shimoli-sharqiyo o'tish yo'lini izlash	78	
Olim va sayyoh Frityof Nansen	80	
«Ulkan mix» sari kimo'zar poygasi	82	
Shimoliy qutbni aslida kim ochgan edi?	84	
Sedov ekspeditsiyasi Shimoliy qutbga	86	
Janubiy qutbning ochilishi	88	
Jasur dengizchilar avlodи	90	
Sayyoradagi so'nggi oq dog'lar	92	
Ko'rsatkich	94	


MUNDARIJA

Oykumena kengayishining boshlanishi	4
Qadimgi dunyo	6
Buyuk yunon sayyohi.....	6
Pifey va Ultima Tule	8
Aleksandr – dunyoni zabit etgan sarkarda	10
Qadimgi Rim. Imperiyaning yaratilishi.....	12
O'rta asrlar	14
Vikinglar kashfiyoti: Islandiya.....	14
Vikinglar kashfiyoti: Grenlandiya	16
Amerika ochilishidan ancha oldin.....	18
Marko Poloning sayohati.....	20
Buyuk Ipak yo'li.....	22
Ibn Battutaning sayohati	24
Sirli Brazil oroli	26
Afsonaviy orolni izlash	28
Buyuk geografik kashfiyotlar davri	30
Kolumbdan 20 yil avval Amerikaning ochilishi	30
Xristofor Kolumbning G'arbiy Hindistoni	32
Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi	34
Britaniya imperiyasining italiyalik asoschisi	36
Amerika nega bunday nomlandi?.....	38
Dunyo bo'ylab birinchi sayohat:	
Tinch okeanga chiqish.....	40
Dunyo bo'ylab birinchi sayohat: fojiali yakun	42
Kortes tomonidan Meksikaning zabit etilishi	44
Buyuk imperiyaning qulashi	46
Eldoradoni izlab	48
«Qirolicha qaroqchisi» Dreykning	
dunyo bo'ylab sayohati	50
Avstraliyaning ochilishi.....	52

moyi, qullar va boshqa yuklarni yetkazib berib turgan. Miloddan avvalgi VII asrda ular Afrikani aylanib o'tganlar. Afrika qirg'oqlari bo'ylab suzgan finikiyaliklar qulay hamda keng ko'rfažni topishgan va u yerda Karfagenga asos solishgan, keyinchalik bu yer antik O'rta dengiz mamlakatlari o'rtasidagi eng yirik port-shaharlardan biriga aylangan. Etimol, aynan finikiyaliklar ilk bor Ispaniya va Afrika orasidagi ikkala tomonidan ham Gibraltar va Seutning o'tkir cho'qqilardan iborat qoyałari bo'y cho'zgan tor bo'g'oz orqali Atlantika okeaniga chiqishib muhim kashfiyotni amalga oshirgandirlar. Boshqa taxminlarga ko'ra esa bu yo'lni birinchi bo'lib Krit oroli aholisi ochgan.

Mesopotamiyalik **shumerlar** miloddan avvalgi III ming yillikda Arabiston atrofida dengiz ekspeditsiyalarini amalga oshirishgan. Shumerlarning qo'shnisi, **elamitlar** esa ularni o'rab turgan tog'larni oshib o'tib, ulardan uzoqda joylashgan Kaspiy dengizi qirg'oqlariga chiqdilar.

Odatda, **biz oykumena to'g'risida Sharqi O'rta dengizdagi sivilizatsiya beshigidan boshlab ma'lumotlarga egamiz**, shu sababli hattoki Yevropaning ochilishi ham birdaniga bo'Imagan deb hisoblanadi. Yevropa miloddan oldingi XVI asrda kritliklar tomonidan ochilgan (Krit – qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri).



Finikiyaliklarning dengiz sayohatlari xaritasi

Odamlar birinchi navbatda daryolarning atrofidagi hosildor yerlarni o'zlashtirishgan. Daryo qabilalar o'rtasida aloqa o'rnatish uchun qulay yo'l bo'lgan. Dengiz orqali suzish boshlanganidan keyin yangi yerlarni ochish sur'atlari tezlashgan.



Oykumena kengayishining boshlanishi

Qadimgi yunonlar sayyoramizning ularga ma'lum bo'lgan qismini «oykumena» deb atashgan. Yunon tilida bu so'z odamlar yashaydigan, aholisi bor joy degan ma'noni anglatadi. **Bizning davrimizga kelib, bizni o'rabi turgan dunyoning o'zlashtirilgan va odamlar istiqomat qiladigan qismi oykumena deb ataladi.**

Qadim zamonlardayoq odamlar yonma-yon joylashgan yerlar haqidagi ko'proq narsalarni bilishga, mahsulotlar va buyumlarni ayirboshlash uchun savdo yo'llari ochishga intilishgan. Qadimgi misrliklar bundan 5 ming yil ilgari Afrika bo'ylab sayohat qilganlar. Miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalarida ular O'rta dengizga chiqib, u orqali boshqa mamlakatlardan mahsulotlarni olib kela boshlaganlar.

Miloddan avvalgi II ming yillikda O'rta dengizning sharqiy qirg'oqlarida yashagan **finikiyaliklar** dengiz kengliklarini o'zlashtirishga kirishganlar: ular Kiprda bir nechta koloniyaga asos solishgan, Kichik Osiyoni janub tomonidan aylanib o'tganlar, Bolqon, Apennin va Pireney yarimorollariga suzib borganlar, Sitsiliya, Sardiniya va boshqa orollarni kashf qilganlar. Ularning kemalari Misrga yog'och-taxta, sharob, zaytun

*Qadimgi rasmda
sayyoq Yer qirrasiga
nazar solishga
urinmoqda*





Gerodot asarlari Qadimgi dunyo haqidagi haqiqiy ensiklopediyadir. Umrining undan ham ko'p qismini jahongashtalik bilan o'tkazgan boshqa bir odamni topish mushkul. Qiziquvchanligi va halolligi Gerodotni ishonchli kuzatuvchiga aylantirdi, u yodgorliklar va hududlarning o'ziga xos tomonlarini aniq va lo'nda qilib ta'riflab berdi.

Gerodot asarlarda Misrning geografiyasi, uning dini va arxitekturasi, qonunlari va urfatlari to'g'risidagi hikoyalar bor. Gerodot birinchi bo'lib ajoyib Misr ehromlarini ta'riflab berdi, bu paytda ehromlar buniyod etilganiga 2 ming yildan ortiq vaqt o'tgan edi. U o'z hikoyalarida Liviya haqida shunday yozadi: «Uning qirg'oqlarida odamlar istiqomat qiladi, undan uzoqroqda esa – yovvoyi hayvonlar dunyosi, undan keyin esa poyoni yo'q quruq va jonsiz qumliklar boshlanadi». Bobil haqida esa shunday jumlalar bor: «U shunchalar go'zal va ulug'vorki, butun dunyoda unga teng keladigan shahar topilmaydi».

Gerodot Ukraina dashtlarida yashagan sirli ko'chmanchi-**skiflar** haqida qiziq ma'lumotlar qoldirgan. «Chavandoz skiflar mahoratli kamonchilardir, ular ot qo'yib borayotib ham marraga aniq uradilar, ularning aravasi esa uy o'rnini o'taydi», – deb yozadi u. Uning asarlari – yer yuzidan allaqachonlar yo'q bo'lib ketgan xalq to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni beruvchi muhim asosdir, bizning davrga kelib ular tarixiy manbalar orqali o'z tasdig'ini topmoqda.



Bobilda tuzilgan dunyo xaritasi: Furot daryosi; shaharlar doirachalar bilan belgilangan

«Men Misr haqidagi hikoyalarimni davom ettiraman, axir dunyoning boshqa hech bir yerida bunchalik ko'p mo'jiza topolmaysiz, bu yerda ta'rifiغا til ojiz xazinalarning son-sanog'i yo'q», – deb yozgan edi Gerodot.




6 Geografik kashfiyotlar

Qadimgi dunyo

Yunonlarning axey qabilasi geografik kashfiyotlari bilan dovruq taratgan: ular O'rta dengizdan Qora dengizga suzib o'tishgan. Finikiyaliklar Yevropani o'rab turgan Atlantika okeani qirg'oqlarini tadqiq qilishgan. Hindlar Hind-Ganga tekisligini o'zlashtirib bo'lishgach, Arab dengizi qirg'oqlariga va Himolay tog'igacha yetib borishgan. Buyuk Xitoyda vujudga kelgan sivilizatsiya Tinch okean qirg'oqlaridan Tibet tog'lilariga qadar yetib bordi. Miloddan avvalgi V asrda Qadimgi Yunonistonda geografiya fani paydo bo'ldi.

Buyuk yunon sayyohi

Birdaniga ikkita fan – geografiya va tarix fanlari asoschisi deb hisoblanadigan, yunonistonlik Gerodot (miloddan avvalgi 490 va 480-yillar orasida tug'ilgan va miloddan avvalgi taxminan 425-yilda vafot etgan) asli kichik osiyolik bo'lgan. U Kichik Osiyo bo'ylab sayohat qilgan, Babil, Finikiya, Misr, Kirena, Yunonistonning turli shaharlari, Qora dengiz qirg'oqlarini borib ko'rgan. Uzoq vaqt Afinada istiqomat qilgan.



Misr ehromlari




Antik olimlar (masalan, Strabon) Pifeyning yozganlariga shubha bilan qarashgan; ular Pifeyning qutb kuni (qutb doirasi sirtidagi kengliklarda yilning quyosh botmaydigan qismi), qutb yog'dusi va mangu muzliklar haqidagi hikoyalariga ishonishmagan.



gan. Brianiya qirg'oqlarini tadqiq etib bo'lgan Pifey La-Manshni kesib o'tib, Kornuolla qirg'oqlariga yetib kelgan. Bu yerda qalay qazib chiqaruvchi konchilar bilan do'stlashgan. Pifey bu yerdagi mahalliy tub **aholining urf-odatlarini** o'rgangan, shu sababli u birinchi etnograflardan hisoblanadi.

Keyin u Britaniya atrofini aylanib suzib o'tgan va uni uchburchak orol sifatida ta'riflagan. Pifey Britaniyadan shimolda **sirli Tule oroli** joylashgan deb hikoya qilgan. Bu orolning joylashgan o'rni haqidagi bahslar ko'p asrlar davom etdi, uning nomi adabiyot olamiga dunyoning eng chekka nuqtasi sifatida kirdi, shundan buyon Ultima Tule so'zлari «dunyoning narigi chekkasi» ma'nosini anglatadi. Biroq Pifey tomonidan ta'rif berilgan orolning o'zi topilmagan.



Kornuolla qirg'oqlari. Miloddan avvalgi V asrda bu yerdan Pifey suzib o'tgan

Pifey va Ultima Tule

Yunonlar qadimdan dengizlarda kezganlar. Kashfiyotlarning ko'p qismini ular O'rta dengizda ochganlar, Yevropaning g'arbiy qirg'oqlarini ham aynan ular birinchi bo'lib suzib o'tganlar.

Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridayoq yunonlar nafaqat Egey va Adriatika, Ionika, Tirren, Liguriy va boshqa O'rta dengizga taalluqli dengizlarni yaxshi bilishardi, balki ular Qora dengizga ham chiqishga ulgurishgan edi. Ular Qrimda (Xersones va Pantikapey), Azov dengizining shimoliy qirg'oqlarida (Tanais) va boshqa joylarda koloniyalarga asos solishgan.




Qutb yog'dusi.

*U haqda birinchi
bo'lib Pifey yozib
qoldirgan edi*

Tarixdagi eng hayratlanarli sayohatlardan biri massaliyalik (Marsel) Pifeining miloddan avvalgi 350–320-yillarda shimol tomoniga qarab kemadagi sirli safaridir. Bu sayohatchi va geograf «Okeanlar haqida» va «Yer ta'rifi» traktatlarini yaratgan. Ular bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, boshqa olimlar tomonidan bayon etilgan holda ma'lum.

Pifey yaxshigina astronom ham bo'lgan, osmon jismlarini puxta bilishi unga turgan joyini aniqlashiga yordam bergan. Shimoliy Yevropa qirg'oqlari bo'ylab uzoq vaqt suzib yurgan vaqtida u shimoliy suv ko'tarilishini kuzatgan, keyinchalik buni o'z asarlarida ta'riflab ber-



Aleksandr otasining o'limidan so'ng 20 yoshida taxtga o'tirdi. Uni ancha ilgaridan tayyorgarlik ko'rilib yurishiga sarkarda etib tayinlashdi. Fors qo'shinlari son jihatidan Aleksandr qo'shinidan ikki barobar ko'p bo'lsa-da, har bir jangda uning qo'li baland kelardi. Orqa tomonidan xavfsizlikni ta'minlash uchun u Finikiyaning asosiy bandargohlari – Sidon, Bibl va Tirni bosib oldi. So'ngra Misrni zabit etdi va u yerda **Aleksandriya** shahriga asos soldi.

Aleksandr boshchiligidagi qo'shin Qadimgi dunyoning eng yirik shahri bo'lgan **Bobilga** bostirib kirdi. Bobil kohinlari Aleksandrni Bobil va dunyoning to'rt tarafiga shoh deb e'lon qildilar. Shundan keyin Aleksandr qo'shini bilan yevropaliklar uchun noma'lum bo'lgan Markaziy Osiyoga yurish boshladi. Janglar **Baqtriya** va **Sug'diyona** (hozirgi Afg'oniston, Tojikiston va O'zbekiston)da olib borildi.

Keyin sarkarda afsonaviy Hindistonga yo'l oldi va kemalarda Hind daryosi bo'ylab suzib borib, okeanga tushdi. Aleksandr o'z maqsadiga yetdi va Yerning oxiriga yetib bordi! Axir uning ustozি Aristotel unga butun Yer yuzini Buyuk Okean yuvib turadi deb aytgan edida. Shundan keyin Aleksandr Bobilga qaytdi va Arabistonga qarshi yurish uchun tayyorlana boshladi, biroq u kutilmaganda kasallikka uchrab vafot etdi.



Aleksandr o'z davrida eng katta imperiyani yaratdi

Aleksandr tug'ilishidan biroz oldin uning onasi tush ko'radi, tushida uni yashin uradi va undan taralgan alanga tillari har tomonga tarqaladi. Tushni ta'bir qiluvchilar bu tushga shunday izoh beradilar: u o'g'il tug'adi, bu o'g'il ulg'ayib butun dunyoni zabit etadi.




Aleksandr – dunyoni zabit etgan sarkarda

Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Maqduniy) (m.a. 356–323-y.) – mag'lubiyat nimaligini bilmagan buyuk sarkarda har doim oddiy jangchi singari birinchi qatorda turib jang qilardi. O'z davlati chegaralarini kengaytira borib u yevropaliklarga notanish yerlarni ochgan. O'n yilga yaqin vaqt mobaynida Aleksandr yer yuzining o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan qismining yarmini bosib olgan va o'tmishtagi eng katta davlatga asos solgan. Uning harbiy yurishlari tufayli **yunon madaniyati** uzoq-uzoqlarga tarqalgan.

Buyuk faylasuf **Aristotel** bo'lg'usi sarkardaga dunyo ilmidan saboq bergen bo'lsa, harbiy tayyorgarlikni u o'z otasi Filipp II rahbarligida o'tagan. Aleksandr o'z tengqurlaridan ancha ilgari otda yurishni o'rgangan, qilichbozlikda unga teng keladigani bo'Imagan. Miloddan avvalgi 338-yilda Xeroneyda bo'lib o'tgan jangda u ilk marta jasorat namunalarini ko'rsatgan. Bu jangda Makedoniya Yunonistonni batamom zabit etgan.

*Forslar va hindlar
Maqduniy qo'shiniga
qarshi kurashda harbiy
fillarni ishga solgan*




Bir kuni Gerkules ibodatxonasida Aleksandr Maqduniyning haykalini ko'rib qolgan Yuliy Sezar og'ir xo'rsindi, u o'zidan norozi edi: axir u 33 ga kirdi, bu yoshida Aleksandr dunyonи zabit etib bo'lgandi.



64-yilda Selevkidlar davlatiga barham berib, Suriya va Falastin huddida Suriya viloyati tuzildi, miloddan avvalgi 63-yilda Iudeya zabit etildi.

Miloddan avvalgi I asr o'rtalarida Rim imperatori **Yuliy Sezar** Galliyidan tortib Reyngacha bo'lgan barcha hududni bosib oldi. Sezar Numidiy shohi Katta Yubuni tor-mor qilib, uning yerlarini Rim davlatiga qo'shib oldi. Miloddan avvalgi 30-yilda Misr bosib olindi. Shunday qilib, miloddan avvalgi III—I asrlardagi harbiy yurishlar natijasida Rim dunyodagi eng katta hukmron davlatga, O'rta dengiz esa «Rimning ichidagi ko'l»ga aylandi.



Rim milodiy IV asrda. Rim imperiyasining qulashi V asr oxirlarida boshlangan edi

Qadimgi Rim. Imperianing yaratilishi

Yunonlar singari ulardan keyin rimliklar ham oykumenani ken-gaytirishga intilganlar. Ular Markaziy va G'arbiy Yevropani, hozirda Britaniya orollari deb ataladigan orollarni, butun Pireniya yarimorolini, Sharqiy Yevropaning bir qismini, shuningdek, Osiyo va Afrika-ning katta hududini bosib olishdi.



Miloddan avvalgi III-asr oxirlariga borib finikiyaliklarning Afrikadagi tayanchi – Karfagen quladi va **Rim** G'arbiy O'rta dengizdagi eng kuchli davlatga aylandi. Rimliklar Karfagenga tegishli bo'lgan Sardiniya va Korsika orollarini bosib oldilar va ularni Sitsiliya bilan birgalikda Rimning viloyatiga aylantirdilar. Miloddan avvalgi II asr boshlarida rimliklar Iberiy yarimorolining markaziy viloyatlarini o'zlariga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar. Bosib olingen hududlarda ikkita viloyat – Yaqin va Uzoq Ispaniya tashkil etildi. Tez orada Rim Bolqon davlatlarini tormor qilib, Sharqiy O'rta dengizdagi kuchli davlatga aylandi.

*Rimning yetti tepaligi
ko'rsatilgan qadimgi reja*

Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Makedoniya ham Rim viloyati aylantirildi. Afina va Spartadan tashqari Yunonistonning barcha shaharlari Rim noiblariga qaram bo'lib qoldilar. Karfagen hududida Afrika viloyati tuzildi, Pergam podshohligi Rimning Osiyodagi viloyatiga aylandi. Rim Kichik Osiyo va Kiprning kattagina qismini o'ziga bo'ysundirdi, Armaniston miloddan avvalgi 66-yilda, Bosfor davlati miloddan avvalgi 63-yilda unga qaram ekanligini tan oldi. Miloddan avvalgi 67–66-yillarda rimliklar Kritni ishg'ol qildilar, miloddan avvalgi




Vikinglarning Islandiyadagi uylari

Ionchilik hujumlari Britaniya, Irlandiya va Shimoliy hamda G'arbiy Yevropaning qirg'oqbo'yи mamlakatlari aholisini dahshatga solardi. Vikinglarning qurollari asosan qilich, harbiy bolta, kamon va nayzalardan iborat bo'lardi.

Keyinchalik **Islandiya** deb nom olgan orolni birinchi bo'lib 867-yilda vikinglar topishgan. Bu shunday bo'lgan edi: bir kuni ularning yo'lboshchilaridan biri **Naddod** o'z qo'shini bilan Norvegiyadan o'zining Farer orolidagi yerlariga qaytib kelayotib kuchli po'rtanaga duch keladi. Po'rtana uning kemasini shimoli-g'arbiy yo'nali shida uzoq-uzoqlarga uloqtiradi, bu yerdan u uzoqdan qorli tog'lar bilan qoplangan yerlarni ko'radi. IX asr oxirida norvegeyaliklar **Gardar** boshchiligida bu orolga yetib kelganlarida, u bo'sh emas edi, biroq mahalliy qabila tezda bu yerni tark etdi.

Islandiyaga ko'chib kelgan urishqoq vikinglar o'zaro munosa-batda bir-birlariga takalluf qilib o'tirmasdilar, shu sababli ular bir-birlarini o'ldirib qo'ymasliklari uchun anchagina qattiq qonunlar qabul qilishga to'g'ri keldi.

Shimoli-g'arbiy Yevropaning beshta davlati – Finlandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Islandiya – Skandinaviya mamlakatlari deb ataladi. Skandinaviyaliklar azaldan mohir va dovyurak dengizchilar bo'lishgan.



O'rta asrlar

O'rta asrlarda Yevropa davlatlarining shakllanishi, ularda chegaralarni belgilash jarayoni bo'lib o'tdi. Hukmdorlar o'zlariga qaram yerlarni kengaytirish va mustahkamlashga intildilar. Jangchilar va savdogarlar tomonidan amalga oshirilgan geografik kashfiyotlar yangi yerlarni o'zlash-tirish yoki o'zaro foydali yangi savdo aloqalarini yo'lga qo'yishga zamin yaratardi.

Vikinglar kashfiyoti: Islandiya

Milodiy 1-ming yillikning oxiriga kelib Yevropa aholisi tez ko'paya boshladi. Yevropaning shimolida yashaydigan **skandinaviyaliklar**-ga qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishlari uchun yaroqli yer kamlik qila boshladi, borida ham tuproq tezda oriqlab, kamhosil bo'lib qolardi. Ba'zi bir dengizchilar dengiz qaroqchiligini o'zlariga kasb qilib olib – **vikinglarga** aylandilar. Vikinglarning, ularni **normanlar** deb ham atashardi («shimoliy odamlar» ma'nosini anglatadi), ta-

Vikinglar kemasi



qoziq tishlari, dengiz hayvonlarining terisini jo'natib, ulardan non, temir buyumlar, qurilish materiallari, shu jumladan, yog'och-taxta olishgan. Grenlandiyaning past bo'yli daraxtlari faqatgina o'tinga yarardi. O'rmonlar Labrador yarimorolidagina mavjud bo'lib, iqlimi og'ir bo'lganligi uchun u yerga suzib borish juda xavfli edi.

XIII asrga borib orol aholisi 5 mingga yetdi, bu yerda yuzga yaqin kichik qishloqlar paydo bo'ldi. Biroq oradan 200 yil o'tib uning aholisi keskin kamayib ketdi. Bunga nafaqat «kichik muz davri» deb ataladigan havoningsovub ketish davri sabab bo'ldi, balki grenlandiyaliklarning o'z mustaqilligini yo'qotgan Islandiya bilan savdo aloqalarining buzilishi ham ta'sir ko'ssatdi. XVIII asrda bu yerga yangi kolonistlar (daniyaliklar) kelishdi va faqatgina eskimoslarni uchratishdi. Normannlar yashagan qishloqlar xarobaga aylanib bo'lgan edi. XXI asr boshiba kelib bu yerda 58 ming odam istiqomat qilmoqda.

Grenlandiyani tadqiq qilish – xavfli ish, buning uchun ko'p qurbanliklar berishga to'g'ri kelgan. Misol uchun aynan shu yerda 1930-yilda nemis geofizigi **Alfred Vegener** halok bo'lgan. Vegener uch marta Grenlandiyaga uyushtirilgan ekspeditsiyada ishtiroy etgan. Bu ekspeditsiyalarning barchasi o'ta xavfli bo'lgan va olimni mahalliy aholi eskimoslar bir necha bor falokatdan qutqarib qolishgan.

«Grenlandiya» so'zi «yashil mamlakat» deb tarjima qilinadi. Unga bu nomni uni kashf etgan kishilar berishgan. Aslida butun Grenlandiya qalin muz qoplamini bilan qoplangan. O'simliklar bu yerda juda kam uchraydi.




*Knorr – normannlarning
yuk kemasi*



Vikinglar kashfiyoti: Grenlandiya

Vikinglardan biri **Erik Sariq** qotilligi uchun Islandiyadan surgun qilin-gan edi. Bir necha hafta kemada xavf-xatarlarga to'la suzishdan so'ng u va uning sheriklari qalin tuman bilan qoplangan yerni ko'rib qolishadi. Ularni zimiston va xilvat qirg'oq qarshi oldi, qirg'oq ortida ulkan muz-liklar qalashib yotardi. Dengiz sayyoohlari qirg'oq bo'ylab janub tomon-ga suzdilar va orolning janubiy chegarasiga yetib borish uchun 600 km dan ortiq yo'l bosib, shu yerda manzil qurdilar. Ular bu yerda turar joy izlari, qayiqlarning qoldiqlari va tosh qurollarni topdilar. Orolning eng janubida qishni o'tkazgan vikinglar bahorda g'arbiy qirg'oqni ko'zdan kechirish uchun yo'lga chiqdilar. 983-yilda Erik yangi yerga 500 ga ya-qin kishi mol-mulki va uy hayvonlari bilan joylashtirilgan 25 ta kemadan iborat butun boshli flotiliyani olib keladi. Tez orada janubiy va g'arbiy qirg'oqda odamlar muqim yashaydigan bir necha qishloq paydo bo'ldi. Ular dengiz hayvonlari, birinchi navbatda, qirg'oqbo'yи atrofida juda ko'p uchraydigan, shu sababli Grenlandiya kitlari nomini olgan kitlarni ovlash bilan shug'ullanishgan. Ular Islandiyaga va hatto Norvegiya-ga mo'yna, gaga (qimmatbaho parli o'rdatk) pari, kit mo'yi, morjning

*Vikinglarning
safar xaritasi*




Masalan, u birinchi bo'lib Quyosh tojini tushuntirishda qiziqarli xulosalarga kelgan. U astronomiya sohasida ham katta natijalarga erishgan. Beruniy 1029 ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari qayd etilgan **yulduzlar jadvalini** tuzgan.

Tasviriy geografiya sohasida Beruniy o'zigacha mavjud ma'lumotlarni umumlashtirib, o'ziga zamondosh bo'lgan sayyoh va savdogarlar to'plagan ma'lumotlar bilan boyitadi. U qoldirgan ma'lumotlar Sharq adabiyotidagi geografiya masalalarini yoritishdagi birinchi manba hisoblanadi.

Amerika qit'asini 1492-yilda Xristofor Kolumb kashf etganligi qayd qilingan. Ammo bu borada Beruniyning ilmiy farazi mavjudligi ham ma'lum. Olim o'zining «Hindiston» asarida Dunyoning g'arbiy qismida yaxlit bir quruqlikning, keyinchalik Amerika deb nomlangan qit'aning mavjudligini yevropalik olimlardan 450 yilcha oldin taxmin qilib yozgan. Uning bu fikri XV–XVI asrlarda o'z tasdig'ini topdi. U joylarning geografik uzoqligi va kengligini aniqlashning yangi usullarini topdi. Beruniyning dunyoning o'lchamlari haqidagi ma'lumotlari hozirgi zamон ma'lumotlariga juda yaqin.

Beruniy ta'rifi bo'yicha tuzilgan dunyo xaritasi va asl manba



Amerika ochilishidan ancha oldin

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad **Al-Beruniy** 973-yilda tavallud topgan. Buyuk o'zbek mutafakkir oli-mi, o'rta asrning buyuk daholaridan. O'z zamonasining hamma fanlarini, birin-chi navbatda, astronomiya, fizika, matematika, ilohiyot va mineralogiya fanlarini puxta egallagan va bu fanlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning nasl-nasabidagi «berun» so'zi «tashqi shahar», «Beruniy» esa «tashqi shaharda yashovchi kishi» ma'nosini bildiradi. U 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Qadimgi Ray, Jurjon shaharlarida yashaydi. Qunt va matonat bilan turli xalqlar tarixi, madaniyati va tillarini o'rganadi. Shu yillarda «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini yozadi. 1005-yilda Xorazmga qaytadi va Ma'mun akademiyasida faoliyat olib boradi.

Al-Beruniy osmon yoritqichlarining harakat trayektoriyasi va shakli ellipsoid ekanligi haqida birinchi bo'lib fikr yuritgan olimlardan. Beruniyning bu bashorati Kepler kashfiyotlarini ma'lum darajada oldindan aytish edi. U o'z asarlarida ayrim hodisalar to'g'risida ham yozgan.

Abu Rayhon Beruniy mineralogiya, matematika, geografiya, geodeziya, geologiya, dorishunoslik, meteorologiya, fizika, biologiya sohalarida asarlar yozib qoldirgan.



Abu Rayhon Beruniy





Marko Polo
xon saroyida 10
yildan ortiq xizmat
qildi

1295-yilda Venetsiyaga qaytgan Marko Polo Genuya bilan bo'lgan to'qnashuvda ishtirok etadi va 1297-yilda asirga tushadi. Qamoqda o'tirgan vaqtida u hamxonasiga o'z sayohati haqida gapirib berib yozdiradi. «**Marko Polo kitobi**» (1298) – Armaniston, Gruziya, Eron, Xitoy, Mongoliya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar geografiyasi, etnografiyasi va tarixi haqidagi ma'lumotlar bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi. Kitobdan, shuningdek, xalq rivoyatlari, afsonalari va ertaklari ham o'rinn olgan.

Bu kitob juda mashhur bo'lib ketdi va XIV–XVI asrlardagi den-gizchilar, xarita tuzuvchilar, yozuvchilarga katta ta'sir ko'rsatdi. Xristofor Kolumb Amerikaga birinchi bor suzganida bu kitob juda qo'l keladi deb hisoblab uni o'zi bilan olib ketdi.

Marko Polo fors tilini (o'sha vaqt dagi xalqaro aloqa tili) bilardi, Xitoyda yashab mo'g'ul tilini (o'sha davrda Xitoydag'i ma'muriy til) o'rgandi, biroq xitoy tilini o'rganishga zarurat sezmadni.



Marko Poloning sayohati

Venetsiyalik **Marko Polo** (taxminan 1254–1324-yillar) o'sha vaqt-larda unchalik ma'lum bo'Imagan Osiyo bo'ylab sayr qilgan birinchi sayyohdir. U sharq davlatlari va xalqlarini aniq va batafsil ta'riflab bergen hamda Yevropa uchun sirli **Xitoyni** ochgan.

Marko Poloning otasi va amakisi savdogar bo'lib, Sharqda savdosoti bilan shug'ullanishgan. Ular ko'p yillar Chingizxonning nabirasi Xubilay xonga xizmat qilishgan. 1270-yilda ular Venetsiyaga qaytib keliшган, biroq birmuncha vaqt o'tib Eron orqali Mongoliya (Mo'g'uliston) imperiyasiga va **Oltin O'rдaga** qarab yo'l olishgan, bu safar ular o'n yetti yashar Markoni ham o'zлari bilan olib ketishgan. 1271–1275-yillarda ular dengiz orqali Kichik Osiyoning janubi-sharqiy qirg'oqlariga chiqishgan, u yerdan quruqlik orqali Xitoyga (Arman tog'lari, Mesopotamiya, Eron tog'lari, Pomir va Qashg'ar orqali) borishgan. Xitoyda Polo Xubilay xonga yoqib qolgan va unga 10 yildan ortiq xizmat qilib, yaxshi martabalarga erishgan, xizmat davomida u mamlakatning turli viloyatlariga tashrif buyurgan. U mamlakatni boshqarish qanchalik murakkab ekanligiga ishonch hosil qilgan, masalan, uning pochta tizimi shunchalik samarali ediki, imperianing turli burchaklaridan xabarlar atigi bir necha soat ichida poytaxtga yetib kelardi. Pochta xizmati 300 ming otda amalga oshirilgan.

Venetsiya. Marko Poloning Osiyoga safari shu yerdan boshlangan





Xitoy savdogarları
Buxoro bozorida

Yo'l miloddan avvalgi III asrga qadar Yevrosiyodagi to'rtta – Rim (O'rta dengiz), Parfiya (Yaqin Sharq), Kushon (Hindiston, Afg'oniston, Markaziy Osiyo) va Xan (Xitoy) imperiyalari tomonidan nazorat qilingan. Garchi ular o'rtasida savdo yo'lining muhim nuqtalarini izmida tutib turish uchun doimiy kurash olib borilgan bo'lsa-da, to'rt imperiya karvon yo'llaridagi barqarorlikni ta'minlashga muvaffaq bo'lgan.

Vaqt o'tib ularning o'rnini o'rta asr imperiyalari egalladi. Ipak yo'li tarixida shunday qisqa davrlar ham bo'ldiki, bu paytda u deyarli bitta davlat tomonidan nazorat qilib turildi: VI asrning oxirlarida **Turk xoqonligi**, XIII asrning ikkinchi choragida – **Chingizxon imperiyasi**, XIV asrning so'nggi 30 yilda esa **Amir Temur imperiyasi** tomonidan nazorat qilindi. Biroq yo'l juda uzun masofani o'z ichiga olganligidan uni bitta yagona davlat tomonidan nazorat qilish o'ta qiyin edi, axir bu yo'l amalda Tinch okeandan Atlantika okeanigacha cho'zilib ketgan transkontinental yo'l edi!


«Buyuk Ipak yo'li» tushunchasi o'sha paytda juda qimmatli hisoblangan mol – ikkita turli dunyo: G'arb va Sharqni bir-biriga tanish-tirgan ipak bilan bog'liq. Bu atamani Ilk marotaba 1877-yilda nemis olimi Ferdinand Rixtgofen o'zining «Xitoy» deb nomlangan ilmiy asarida qalamga olgan.



Buyuk Ipak yo'li

Buyuk Ipak yo'li hech qachon yagona bir yo'ldan iborat bo'Imagan. Uning tarkibiga tog' dovonlari orqali, cho'llarni aylanib o'tgan turli yo'nalishdagi bir necha karvon yo'llari tarmog'i kirgan.

Ipak yo'li Xitoyning qadimiy poytaxti – Chanan (Chang'An)dan boshlanib, shimoliy Tyan-Shan yoqalab Dunxuaga – Buyuk Xitoy devori atrofidagi shaharga qarab ketgan. Shu yerga kelganda yo'l Takla-Makon cho'lini shimol va janubdan aylanib o'tadigan bir necha tarmoqlarga bo'linib ketgan. Shimoliy yo'l Turfan orqali Ili daryosi vodiysiga chiqqan. O'rtadagi yo'l Sug'diyonaga olib borgan, janub tomondagisi esa – Baqtriyaga yo'nalgan. Tyan-Shandan oshib o'tgan karvon yo'l **Samarqand, Buxoro, Xorazmga**, undan esa Kaspiy dengizi qirg'oqlariga yetib kelar edi. Janubiy yo'l ikkiga bo'linib ketgan, ularning biri Hindistonga boshlasa, ikkinchisi – g'arba, Parfiya, Fors, Mesopotamiya, Bag'dod, Damashq orqali O'rta dengizga chiqqan.



Buyuk Ipak yo'li yo'nalishlari

lish xavfli va foyda keltirmaydigan ish bo'lib tuyuladi, shuning uchun shimolga qarab yurishni to'xtatadi.


Ibn Battuta keyinroq Markaziy Osiyo va Hindistonga safar qiladi. U Hindistonda sakkiz yil bo'ladi. 1342-yilda hind sultoni uni Xitoyga yuboradi, biroq bu safar amalga oshmaydi. Keyinchalik Maldiv orollari hokimida xizmat qilib bo'Iganidan so'ng u Seylonga tashrif buyuradi va nihoyat Xitoyga yetib boradi.

1349-yilda Ibn Battuta Seylon, Arabiston va Misr orqali vatani-ga qaytadi, biroq bu bilan uning sayohati tugamaydi. Ispaniyaga tashrif buyurganidan so'ng u yana Afrikaga, sirli shahar **Timbuktu** (Mali)ga jo'naydi. Yo'lga 1352-yilda chiqadi. Bu uning eng yirik eks-peditsiyasi edi. Maliga yo'l olgan Ibn Battuta Sahroyi Kabir cho'llarini kesib o'tadi. Yo'l juda qiyin bo'lib chiqadi, sayohatchi sahro qaroq-chilar bilan to'lib toshgani sababli karvonga qo'shilib oladi. Karvon birinchi marta Tagazda qo'nib o'tadi. Battutaning guvohlik berishicha, u yerdag'i barcha uylar tuz va tuya terisidan qilingan edi. Sayohatchilar o'zlarini bilan o'n kunga yetgulik suv olvoladilar: Tasaraligacha shuncha kun yo'l yurilishi kerak edi. So'ngra esa yangi zaxiralar bilan Valataga yetib olishadi.

Battuta Maliga yetib keladi, keyin Niger daryosigacha boradi. Yo'l juda xatarli edi, biroq Ibn Battuta Malining boy Timbuktu shahriga borib yetadi va imperator Sulay-monning saroyida bo'ladi.

Ibn Battuta ellikka kirgandan so'ng tug'ilib o'sgan shahri Tanjerga qaytib keladi va o'zining ajoyib sayohatlari hamda sarguzashtlari haqidagi kitobini aytib turib yozdiradi.

*Ibn Battutaning sayohatlari.
O'rta asr miniaturasi*



Ibn Battutaning sayohati

Ibn Battuta (1304–1377) mamlakatma-mamlakat kezib yuradigan savdogar va hormas-tolmas sayohatchi edi.

O'ttiz yil davomida u Atlantika okeani qirg'oqlarida joylashgan o'z yurti **Tanjerdan** (Marokko) **Eron va Xitoygacha, Qizil dengizdan Zanzibargacha va Ispaniyadan Sahroyi Kabirning** markaziyi viloyatlarigacha bo'lgan ulkan hududlarni o'rgandi. Ibn Battuta sarguzashtlarga boy hayoti mobaynida necha martalab kema halokatiga uchrab omon qoldi, Arabishtonga bordi, **Dehlida (Hindiston)** shafqatsiz sulton saroyida maslahatchi bo'ldi va hatto **Maldiv orollaridagi** qabilaga yo'lboshchilik ham qildi.

Yigirma yoshida u o'z davrining aksariyat o'qimishli arablari singari **Makka** (Saudiya Arabistonining g'arbida joylashgan shahar) ni ziyorat qilish uchun yo'l oladi, bu uning birinchi sayohati edi. Sharqiy Afrikaga qilgan safari ham unda katta taassurot qoldirdi. Eron, Suriya va Kichik Osiyon kezib chiqqan Ibn Battuta Qora dengizni kesib o'tib, quruqlik orqali Volgaga yetib bordi. Ibn Battuta **Volga bo'ylab Kamaning** quyilish joyigacha ko'tarildi, bu yerdagi Bolgar shahrida **Oltin O'rda**ning muhim savdo markazi joylashgan edi. Uddaburon savdogarga «zulmat mamlakatida» mo'yna bilan savdo qil-



Ibn Battuta

«Ibn Battutaning sayohatlari haqida»gi kitob XIV asrda paydo bo'lgan va ko'plab tillarga tarjima qilingan. Unda muallifning Yevropa, Osiyo va Afrika bo'ylab ko'p sonli sayohatlari ishonchli tarzda tavsiflab berilgan...



uch yoki to'rt machtali yelkanli kema) shayladilar». 1680-yilda golueyalik Morrou O'Ley degan kishi olti yoki sakkiz yil Brazil orollarida bo'lganligini, so'ngra shifokorga aylanganligini tasdiqlaydi. Bu Britaniya afsonalarining klassik mazmuniiga mos keladi: afsonaviy mamlakatda birmuncha vaqtini o'tkazgan odam bemorlarni sog'aytirib yuborish qobiliyatiga ega bo'lib qaytadi.

Taxminan 1625-yilda qirol tomonidan Lesli avlodi vakillaridan biriga Brazil oroli hadya qilinadi, bu hadya orol topilishi bilan kuchga kirishi kerak edi. XVI asrdan boshlab xaritalarda Braziliyani Amerika tomonga joylashtira boshlashdi. XVIII asrda kartograflar uni Atlantika markaziga ko'chirishdi. U hattoki XIX asrdagi xaritalarda ham bor edi, faqat bu paytga kelib uni yirik orol deb emas, balki uncha katta bo'limgan qoya deb hisoblashardi. 1873-yilda okeanning serqatnov bu hududiga borib, nazarda tutilgan qoya topilmagandan keyin, Britaniya admiralligi uni o'z xaritalaridan o'chirib tashladi.



*Portugaliya shahzodasi
Genrix dengiz sayyohi*

Irlandiyalik kapitan Jon Nisbet 1674-yilda Brazilga yetib borganligini tasdiqlaydi. U orolni ulkan qora qoya sifatida ta'riflaydi. Jon Nisbetning aytishicha, unda yoniga yo'lab bo'lmaydigan katta qasr bo'lib, u yerda yovuz afsungar yashaydi.



Sirli Brazil oroli

Brazil afsonaviy oroli taxminan **Irlandiyaga** yaqin joyda joylashgan. Uning nomi Janubiy Amerikadagi yirik mamlakat bilan bog'liq emas. Ehtimol, u keltlarning «ajoyib», «eng buyuk» so'zlaridan kelib chiqqan degan taxminlar bor. Kelt afsonalarida har yetti yilda den-gizda paydo bo'ladigan, biroq biror kishi yaqinlashsa yo'qolib qoladigan to'qqiz orol tilga olinadi.

Atlantikada, Janubiy Irlandiya kengligida joylashgan bu orol ilk marotaba 1325-yilda xaritada paydo bo'ldi. 1452-yilda portugaliyalik **Diyego de Teyvi** uni izlashga urinadi, uni shahzoda **Genrix den-giz sayyohi** Shimoliy Atlantikani tadqiq etish uchun yuborgan edi. U Sargasso dengiziga yetib borgach, shimolga qayrildi va g'arbiy Azor orollarini ochdi. Ekspeditsiyada ispan **Xristofor Kolumb** bilan yaxshi tanish bo'lgan **Pedro de Velasko** ham qatnashdi.


1498-yilda Ispaniyaning Angliyadagi elchisi yozishicha, «oxirgi yetti yil ichida Bristol aholisi Brazil orollari va Yetti shahar orolini izlash uchun ikki, uch va to'rt karavellalarni (o'rta asrlarda ispan va portugallarda

Brazil orolini
Atlantika
okeanidan
izlashgan




peditsiya haqida gap-so'zlar yurgan: ularning kemalari dovulga uchrab yo'ldan chiqib ketgan va Yetti shahar oroliga borib qolgan; bu orolda odamlar haligacha portugal tilida so'zlashar emish, ular kelganlardan ularning ajoddlari yashagan yerlarda hali ham mavrlar hukmronlik qilayaptimi deb so'rashgan emish.

Oxirgi marta Yetti shahar orolini 1639-yilda, Lissabonda monax-fransiskaneslar guruhi paydo bo'lganda esga olishdi. Ularning ont ichib aytishlariga qaraganda, shamol ularning kemasini notanish orolga olib kelgan va bu yerda ular aholisi kam sonli shaharni ko'rishgan. Shahar markazidagi saroy tepasida mayoq yuksalib turgan. Ularning yoniga portugal tilida so'zlashadigan odamlar kelishgan. So'ngra ularni oliv patriarx – orol qiroli oldiga olib borishgan. Saroyda rasmlar osilgan bo'lib, ularda portugallar bilan mavrlar o'rtasida bo'lib o'tgan janglar tasvirlangan edi. Saroy hududida ibodatxona bo'lib, uni sherlar qo'riqlab turgan. Bu ibodatxonada qo'lida qilich tutib turgan Muqaddas Qiz haykali bo'lgan. Fransiskanetslarning ta'kidlashicha, bu **orol Madeyra** orollaridan bir kunlik masofada joylashgan, biroq ular orolga borish uchun qaysi tarafiga qarab yurish kerakligini aytishmagan.



G. Mercator atlasining muqovasi

Afsonaga ko'ra, Yetti shahar oroli Atlantika okeanida joylashgan. Bu orol Orteliya (1571) va Mercatorning (1587) dunyo xaritasidan joy olgan, biroq keyinchalik xarita tuzuvchilar uni o'z xartalarida ko'rsatishmagan.



Afsonaviy orolni izlash

VIII asrda **mavrlar**, ya'ni shimoliy afrikalik musulmonlar **vestgotlar** davlatini bosib olishgan. Ularning qo'shnlari shafqatsizlik bilan Pireney yarimoroliga kirib borganlar. Xristianlar qochib ketib jon saqlashga majbur bo'lganlar. Ularning ba'zilari esa hattoki boshqa mamlakatlardan panoh izlashga qaror qilganlar.

Yetti shahar oroli haqidagi afsona ham ma'lum, unga ko'ra bu yerda g'ayridinlar tomonidan qilingan tazyiqdan chekinib borib qolgan xristianlar yashashadi. Bu afsona nafaqat Ispaniyada saqlanib qoldi, balki XII asrda arab geografi **Abu Abdulla Muhammad Idrisi** ham Atlantika okeanidagi qachonlardir aynan yetti shahari bo'lgan Saxelya oroli haqida eslatib o'tgan. Shuningdek, bu yetti shahar Brazil orollarida joylashgan deb ham taxmin qilingan. Biroq tadqiqotchilarining e'tibori ko'proq yana bir afsonaviy orol – Antiliyaga ham qaratilgan. Buning ustiga 1546-yilda fransuzlarning xaritasidagi orollardan biri Yetti shahar oroli deb nomlangan. XV asr boshlarida ikkita eks-



Madeyra orollari

Nemis kartografi
G. Martellusning dunyo
xaritasi. 1498-yil.



mon ketgan yerlar ham ko'rsatilgan, bu yerlarni Yangi Shotlandiya, Nyufaundlen va Ilohiy Lavrentiy qo'ltig'i deb hisoblash mumkin. Bu yerlar haqidagi ma'lumotlarni u xotinining yaqin qarindosh, bu paytga kelib, Azor orollaridan birida gubernatorlik qilayotgan o'sha Korterealning o'zidan olishi mumkin edi. Bexaym bu orolda to'rt yil yashagan va shuni ishonch bilan taxmin qilish mumkinki, ular bir necha martalab uchrashishgan va kartograf qimmatli ma'lumotni bevosita sayohatchining o'zidan olgan.

Qirol Juan II Korterealning o'g'illari – Gashpar va Migelga ularning otasi tomonidan ochilgan «orol va materikka» egalik huquqini ber-ganligi Kortereal kashfiyotini yana bir bor tasdiqlaydi.

XVI asr boshida Gashpar va Migel bu yerlarni izlab yo'lga tu-shishdi, biroq ular shu ketgancha dom-daraksiz ketishdi.

Martin Bexaym (1459–1507) – nemis geografi va sayohatchisi, uzoq vaqt Portugaliyada xizmatda bo'lgan. U bizgacha saqlanib qolgan eng qadimgi globusni yaratgan.



Buyuk geografik kashfiyotlar davri

XV asr o'rtalaridan XVII asr o'rtalarigacha bo'lgan davr – Buyuk geografik kashfiyotlar davri deb ataladi. Bu davrda quruqlik va dengizda ko'plab muhim kashfiyotlar qilingan. Bu davrning eng muhim kashfiyoti shubhasiz, Xristofor Kolumb tomonidan Amerikaning kashf qilinishidir.


Kolumbdan 20 yil avval Amerikaning ochilishi

XV asr o'rtalarida Portugaliya qiroli Alfons V norvegiyalik kapitan-qaroqchilar – Didrik Payning va Gans Poforstning afsonaviy boy mamlakat hisoblangan Hindistonga boriladigan shimoliy dengiz yo'llini izlash bo'yicha ekspeditsiyasini mablag' bilan ta'minlagan.

Bu ekspeditsiyaning maxfiy rahbari Portugaliya qirolining vakili **Juan Kortereal** edi. Korterealning Amerikaga ekspeditsiyasi tarixi

haqida hech narsa ma'lum emas. Kema-lar Norvegiyadan yoki Daniyadan yo'lga chiqqan va avvaliga Islandiya tomonga qarab yo'l olishgan. U yerdan Grenlandiya-yaga, keyin esa Yangi Dunyoga o'tishgan. Korterealning 1472-yilda Amerikada bo'lganligini tasdiqlovchi bu ekspeditsiya haqida yozma ma'lumotlar ancha keyingi manbalarda saqlanib qolgan.

Martin Bexaymning 1492-yilda-gi mashhur globusi Kortereal kashfiyotining asosiy isbotidir. Unda nafaqat Yevropa, balki Islandiyadan g'arba to-



M. Bexaym globusi

ekspeditsiya g'arb tomonga qayrildi va Atlantika okeanini kesib o'tdi. Kolumb Bagam arxipelagi orollaridan biriga tushdi. Ochiq orollardan birini u San-Salvador deb nomladi. Shu kun rasman Amerika ochilgan kun deb hisoblanadi.

Keyinchalik Kolumb yana bir necha Bagam orollariga yaqinlashib bordi, **Gaiti orollarini** ochdi va ularga **Espanolo** deb nom berdi, Kubaning shimoli-sharqi qirg'oqlarining bir qismini ochdi, bu yerda u ekin maydonlari bilan o'rالgan qishloqlarga duch keldi. Yevropaliklar o'zlarini uchun notanish bo'lган madaniy ekinlar – makkajo'xori, kartoshka va tamakiga e'tibor qaratdilar, ular ilk marotaba aborigenlar qanday qilib tamaki chekayotganlarini ko'rdilar.

Ikkinci ekspeditsiya (1493–1496) 1,5–2,5 ming kishidan iborat ekipajni o'z ichiga olgan 17 ta kemadan iborat bo'lib, unda Dominika, Gvadelupa orollari, Puerto-Riko oroli va yana yigirmaga yaqin Kichik Antilya orollari ochildi.

Uchinchi ekspeditsiya (1498–1500) Trinidad orolini ochdi va Orinoko daryosi deltasini topdi, bu bilan Janubiy Amerikaning ochili shiga asos solindi. **To'rtinchi ekspeditsiya (1502–1504)** Martinka orollariga va Gonduras qo'llitig'iga yetib bordi. To'rtinchi ekspeditsiyada Kolumb Markaziy Amerikaning Karib qirg'oqlarida 2 ming km masofani bosib o'tdi.



Kolumbning uchta karavellalaridan biri – «Santa-Mariya»

Xristofor Kolumb yevropaliklar uchun yangi matrik ochganini bilmasdan o'tib ketdi. Geografik kashfiyotlar unga boylik keltirmadi, shon-shuhrat esa vaqtinchalik bo'lib chiqdi.



Xristofor Kolumbning G'arbiy Hindistoni

XV asrda Yevropada dengiz ortidan keltiriladigan mahsulotlarga, birinchi navbatda, vatani Hindiston hisoblanadigan ziravorlarga bo'lgan talab juda oshib ketdi. U yerga quruqlik orqali borish yo'li turklar tomonidan egallab olingandi, shu sababli yevropaliklarga dengiz orqali borish yo'lini izlashga to'g'ri keldi. Bunda asosiy raqobatchilar Portugaliya va Ispaniya bo'ldi.


Xristofor Kolumb 1451-yilda Genuyada tug'ilgan bo'lsa-da, biroq u ko'p yillar Portugaliya kemalarida xizmat qildi. U o'qimishli kishi bo'lib, bir necha tillarda o'qishni bilar va xaritalar tuzishga qiziqardi. Kolumb dadil fikrni – Yevropadan Hindistonga g'arbiy dengiz yo'li orqali suzib borish g'oyasini ilgari surdi. 1485-yilda Portugaliya qiroli bu g'oyani qo'llab-quvvatlashni rad etgandan so'ng u Ispaniya hukumatiga murojaat qildi va ekspeditsiya tashkil etishga muvaffaq bo'ldi.

Birinchi ekspeditsiyada (1492–1493) hammasi bo'lib 90 kishi qatnashdi, ular uchta uncha katta bo'limgan kemalar – «Santa-Mariya», «Pinta» va «Ninya»da yo'lga chiqishdi. 1492-yilning 3-avgustida kemalar avval Kanar orollari tomonga jo'nashdi, so'ngra

*Kolumb o'zi
ochgan yerlarni
Ispaniya mulki
deb e'lon qildi*



Gabriel» kemasiga admiral bayrog'ini o'rnatdi. Bundan tashqari flotiliyani oziq-ovqat va asbob-jihozlar g'amlangan transport kemasi kuzatib bordi. Ekipaj tajribali dengizchilardan iborat edi, ular orasida arab va afrika tillarida gapira oladigan tilmochlar ham bor edi.



Vasko da Gama

1497-yil 8-iyulda flotiliya Lissabondan yo'lga chiqdi va bir necha hafta suzib, Yaxshi Umid burnini aylanib o'tdi. Zambezining quylish joyida ekipaj kemalarni ta'mirlash uchun to'xtab o'tishiga, keyin shimolga qarab suzishda arablarga tegishli yerlardan o'tishiga to'g'ri keldi. Portugaliyaliklar mahalliy shayx bilan til topishishga muvaffaq bo'ldilar, u ekipajga ishonchli lotsman topib berdi, lotsman kemalarni Hindistonning Kalikutdag'i gavaniga olib borib qo'ydi.

Sayohatchilar kemalarga ziravorlar va qimmatbaho zeb-ziynatlar yuklab, ortga qaytishdi. Ortga qarab deyarli bir yil suzishdi. Portugaliyaga faqatgina ikkita kema qaytib keldi, xolos. Ekipajning yarmi arablar bilan bo'lgan to'qnashuvda, shuningdek, singa kasaliga chalilib halok bo'ldi.

Shunday qilib, Vasko da Gama dengiz yo'lini ochdi, 1869-yilda Suvaysh kanali ochilgunga qadar Yevropaning Hind okeani mamlakatlari va Xitoy bilan butun savdo aloqalari shu yo'l orqali amalga oshirildi. Bu savdolarda monopoliya Portugaliya qo'lida bo'ldi, bu unga deyarli yuz yil mobaynida eng kuchli dengiz mamlakati mavqeyini saqlab turishiga imkon berdi.

Vasko da Gama Afrika qirg'oqlarini batafsil ta'riflab berdi, batafsilligi jihatidan faqatgina XIX asrdagi Britaniya admiralligining «Afrika lotsiyasi»gina u bilan tenglasha oladi.



Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi

Kolumbning ispan ekspeditsiyasi G'arbiy Hindistonni ochdi deb hisoblandi, portugaliyaliklar esa Hindistonga ochilgan yo'lga egalik qilish huquqini belgilab olish uchun shoshilishlari kerak edi. Buning uchun 1497-yilda Portugaliyadan Afrika atrofidan aylanib Hindistonga dengiz orqali borish yo'lini topish uchun eskadra shaylandi.

Portugaliyalik dengizchilar Afrika janub tomonidan sharqqa qarab cho'zilib ketganligini bilishardi, axir 1488-yilda **Bartolomeu Diash** Afrikaning janubiy chekkasigacha suzib borgan, hattoki uni aylanib ham o'tgan edi. Yangi ekspeditsiyaga boshliq etib asli oqsuyaklardan bo'lgan saroy amaldori **Vasko da Gama** tayinlandi, uni shaxsan qirol Manuel I ekspeditsiyaga rahbar etib tayinladi. U «San-Gabriel», «San-Rafael» va tez yurar «Berriu» karavellasini Gama ixtiyoriga berdi. Vasko «San-



Vasko da Gama eskadrasи



*Jon Kabot
kemasining
aynan aniq
nusxasi*

talab gorizontdan Nyufaundlend orolinining shimoliy chekkasi ko'zga tashlandi. Yaqin bandargohlardan birida Kabot qirg'oqqa chiqdi va bu yerlarni ingliz qirolining yeri deb e'lon qildi.

Nyufaundlend – Atlantika okeanidagi shimoliy Amerikaning shimoli-sharqiy qirg'oqlaridagi orol.

Ochiq dengizda Jon Kabot ekspeditsiyasini yana bir yangilik kutardi: materikdan uncha uzoq bo'limgan joyda dengizchilar asosan seld va treskadan iborat ulkan baliqlar to'dasini uchratishdi. Shunday qilib, **Katta Nyufaundlend sayozligi** – dunyodagi eng boy baliq ovlash joylaridan biri hisoblanadigan Atlantikadagi yirik sayozlik topildi.

XVII asrda Angliyaning Labrador va Nyufaundlendga yaqin joydan baliq ovlash natijasida olgan daromadi Ispaniyaning XVI asrda hind boyliklarini olib kelishdan topgan foydasidan ancha oshib ketdi. Baliq 4 marta ko'proq foyda keltirdi.



Britaniya imperiyasining italiyalik asoschisi

Jon Kabotning kemadagi safari Angliyani «dengiz hukmdori» ga aylantirgan va Britaniya kolonial imperiyasiga asos solish uchun zamin yaratgan buyuk sayohatlar qatoridagi birinchi safar bo'ldi. Angliyaga xos nomiga qaramasdan Jon Kaboto asli britaniyalik emasdi. U italyan bo'lib, uning haqiqiy ismi – **Jovanni Kaboto** edi.

Kaboto 1450-yilda Genuyada tug'ildi. Dengizchi va savdogar Giovanni hind mahsulotlari olib kelish uchun Yaqin Sharqqa sayohat qilib turardi. U o'sha vaqtlardagi eng qimmatbaho mahsulot bo'lgan ziravorlar juda uzoqdan, Hindistondan shimoli-sharqda joylashgan

qanaqadir mamlakatlardan olib kelinishini bilardi. **O'sha vaqtning o'qimishli odamlariga Yer shar shaklida ekanligi ma'lum bo'lganligi sababli**, u mantiqiy xulosa chiqardi: Hindistondan uzoqda shimoli-sharqda joylashgan «ziravorlar mamlakati» yevropaliklar uchun shimoli-g'arbda joylashadi. Biroq uning yangi yo'l bo'ylab o'ylab topgan sayohati uning vatanida hech kimni qiziqtirmadi va tadbirkor italyan 1490-yilda Angliyaga yo'l oladi. U yerda u ismini o'zgartirib, Jon Kabotga aylanadi.



Nyufaundlend oroli

1496-yilda Angliya qiroli unga «majusiyalar va g'ayridinlarning barcha orollari, yerlari, davlatlari va muzofotlarini izlash, ochish va tadqiq qilish... va ularda Angliya bayrog'ini ko'tarish huquqi»ni beradigan patent berdi.

1497-yil mayda Kabot va uning 18 kishidan iborat komandasini Bris-toldan uncha katta bo'limgan kemada safarga chiqdi. Kema shimaliy kenglikdan 520° shimolga qarab suzib ketdi. 24-iyun kuni er-

tarkibiga kiritildi. Vespucchining hikoya qilishicha, ular 1497- yil mayda Kadisdan yo'lga chiqishdi va oradan bir oy o'tib, Gonduras qo'ltig'idagi Markaziy Amerika qirg'oqlariga yetib borishdi. So'ngra ular ilonizi qirg'oq chizig'i bo'ylab suzishda davom etdilar. Dengizchilar tez-tez qirg'oqqa chiqib, mayda-chuydalarini indeyslarning oltiniga ayrboshlab olishardi. 1498-yilda ekspeditsiya Ispaniyaga qaytib keldi.

Keyingi yil ikkinchi ekspeditsiya kemalari Janubiy Amerika qirg'oqlari bo'ylab yo'lga chiqdi. Yo'lda ular ikkita daryo – Amazonka va Paraga duch kelishdi. Vespucchi bir necha hamrohi bilan birgalikda qayiqlarda bu daryolarning biri bo'ylab 100 km gacha ichkariga suzib bordi. U o'z xatlarida daryo qirg'oqlari bo'ylab cho'zilib ketgan o'tib bo'lmas tropik o'rmonni, yo'lda uchragan qushlar va hayvonlarni juda chiroyli ta'riflab bergen. Shundan keyin okean qirg'oqlari va Trinidad orollari ko'zdan kechirildi. 1500-yil iyunda sayohatchilar Ispaniyaga qaytib kelishdi.

1501–1502-yillarda Vespucchi Yangi Dunyo qirg'oqlariga qarab yo'l olgan uchta kemadan iborat Portugaliya ekspeditsiyasida qatnashdi. Bu **Gonsalu Kuelyuning** birinchi dengiz safari edi. U Vespucchidan shturmanlik qilishni so'radi. Ular Janubiy Amerika qirg'oqlari bo'ylab 2 ming kilometrgacha suzib bordilar. Kuelyuning olti kemadan iborat ikkinchi ekspeditsiyasida (1503–1504) Vespucchi karavellani boshqardi. Ular tomonidan ochilgan Vozneseniya orolida uchta kema dom-darakksiz yo'qoldi, bitta kema cho'kib ketdi. Vespucchi mustaqil ravishda Toduz-us-Santus ko'rfafiga yetib keldi va tepalik tomonga otryad jo'natdi, bu otryad mamlakat ichkarisiga qarab 250 km gacha kirib bordi. Bepoyon quruqlik qirg'oqlari bo'ylab uzoqdan uzoq suzish Vespucchiga uni yangi materik deb tan olishiga imkon berdi. Aynan Amerigo bu materikni Yangi Dunyo deb atashni taklif qildi.



Amerigo Vespucchining
bosib o'tgan yo'li

Amerika nega bunday nomlandi?

XVI asr boshlariida Amerigo Vespuuchining Yangi Dunyoga uyushtirilgan ekspeditsiyalari, janubiy mamlakatlarning tabiatini, indeyslarning hayoti va urf-odatlari haqida hikoya qilib, do'stlariga yozgan xatlari keng tarqalib ketdi. Bu xatlardan Vespuuchchining rozilisiz nashr qilingan edi. O'sha paytlarda geograf Martin Valdzemyuller kitob nashr qildi, uning xaritasidaga G'arbiy yarimsharda bo'yin orqali bir-biri bilan bog'langan ikki qismdan – «Noma'lum Yer» va «Amerika»dan iborat Yer tasvirlangan edi. Valdzemyuller Kolumb Sharqiy Osiyoni tadqiq qilgan, Vespuuchchi esa ekvatorning ikkala tomoniga ham yoyilib ketgan yangi materikni ochgan degan fikrdan kelib chiqqan holda Yangi materikka Amerigo Vespuuchchining nomini berdi. Keyinchalik esa Gerard Merkatorning (1512–1594) xaritalarida ilk marotaba «Shimoliy Amerika» va «Janubiy Amerika» degan so'zlar paydo bo'ldi. Shu tarzda Yangi Dunyoga nom berildi.

Amerigo Vespuuchchi aslida kim edi? U 1454-yilda Florensiyada tug'ilgan, xizmat taqozosi tufayli Sevilyaga ko'chib o'tgan. 1499-yilda uning hayoti birdaniga o'zgarib ketdi: u Alonso de Oxedo rahbarligida Kolumb tomonidan ochilgan yerlarga uyushtirilayotgan ekspeditsiya



Amerigo Vespuuchchi

Vespuuchchini Amerikani birinchi bo'lib ochgan odamning shon-shuhratini o'rinsiz o'zlashtirib olganlikda ayplashdi. Nohaq ayblov! Bu shon-shuhratga Amerigo Vespuuchchi hech qachon da'vo qilmagandi, mashhurlikning o'zi uni topdi.



«U kulishni, iltifot qilishni, birovning ko'nglini olishni bilmasdi, u o'z fikrini mohirona himoya qila olmasdi... Magellanning fe'l-atvori aks ta'sirni vujudga keltirardi», – deb yozgandi Magellan ekspeditsiyasining solnomachisi.



gulxanlarni ko'rishgan, shu sababli arkipelag **Olovli Yer** nomini olgan. Magellan ekspeditsiyasi tomonidan ochilgan bo'g'oz keyinchalik **Magellan bo'g'ozi** deb ataldi.

Vaziyat murakkablashgan edi – oziq-ovqat zaxirasi deyarli tuga-gandi, biroq Magellanning ularni Molukka orollaridan atigi 3–4 kunlik dengiz orqali o'tish yo'li ajratib turganiga ishonchi komil edi. Kemalar yevropaliklar uchun noma'lum bo'lgan ulkan okean bo'ylab yo'lga tushdi, bu okean hayratomuz tinch tabiatи uchun Magellan tomonidan Tinch okean deb ataldi, dengizchilar u yerga shtil vaqtida, ya'ni shamolsiz vaqt-da tushib qolgan edilar.

Tinch okean bo'ylab suzish deyarli to'rt oy davom etdi va dengizchilar bu vaqtda ko'p narsalardan mahrum bo'lishga majbur bo'ldilar. Nihoyat, orziqib kutilgan «Yer!» degan hayqiriq yangradi. Tez orada sayohatchilar ko'z o'ngida Filippin namoyon bo'ldi.



Olovli Yer orolinining xaritasи

Dunyo bo'ylab birinchi sayohat: Tinch okeanga chiqish

Tarixda birinchi bo'lib dunyo bo'ylab sayohatni portugaliyalik **Fernan Magellan** rahbarligidagi ispan flotiliyasini amalga oshirdi. Uning haqiqiy ismi **Fernan di Magalyaynsh**. Bu sayohat Yerning dumaloq shar shaklida ekanligini isbotladi.

Magellan yaxshigina ma'lumot oldi, shu jumladan, astronomiya va navigatsiya bo'yicha yetarlicha bilimga ega bo'ldi; 20 yoshida u ilk marta dengizga chiqdi. Uning hayot yo'li oddiy konkistador – bos-

qinchilikdan iborat edi, Sharqiy Afrika va Hindiston qirg'oqlaridagi janglarda, arablar bilan bo'lgan dengiz janglarida ishtirok etdi. Portugaliya qiroli bilan arazlashib qolgan Magellan Ispaniyaga yo'l oladi. U Ispaniya qiroli Karlos I ni **Molukka orollari** (Ziravorlar oroli) Portugaliya-ga emas, balki Ispaniyaga tegishli bo'lishi kerakligiga ishontiradi. Bu orolga go'yoki o'ziga yaxshi ma'lum bo'lgan g'arbiy bo'g'oz orqali yetib borishni taklif qiladi.



Fernan Magellan

1519-yil sentabrda beshta kemadan iborat flotiliya yo'lga chiqadi. Ekspeditsiya Janubiy Amerikaning qirg'oqlariga yetib boradi, biroq

o'tish yo'lini behuda izlash mart oyining oxirlarigacha, kuchli sovuq va dovul boshlangunga qadar davom etadi, jasur dengizchilar Patagoniyada qishlash uchun to'xtashga majbur bo'lishadi.

1520-yil oktabrda kemalar uzoq kutilgan bo'g'ozga kirib boradilar, ko'p sonli orollar orasida joylashgan bu yo'l egri-bugri va o'ta xavfli edi. Keyinchalik dengizchilar u yerda doimo to'rt tomondan ham shimoliy shamol esib turishini aytib berishgan edi. Yon atrofdagi orollar kimsasiz va unumsiz bo'lib chiqdi, biroq tunlari dengizchilar ularda son-sanoqsiz



Magellan bosib
o'tgan yo'

Butun sayohat davomida birinchi marotaba Magellan o'zini tu-shunarsiz tutdi. Uning xatti-harakatlari qirolning farmoyishlariga zid edi. Magellan be'mani to'qnashuvga rahbarlik qildi va bu jangda o'zi ham halok bo'ldi.

Omon qolgan yagona kema kapitani **Sebastyan Elkano** portugaliyaliklarga duch kelmaslik uchun Antarktida tomonga suzib ketdi. 1522-yil sentabrda u sayohat xarajatlarining o'rnini qoplashga yetadigan ziravorlar yuklangan «Viktoriya»ni Ispaniyaga olib keldi. O'n sakkizta holdan toyib, tinkasi qurigan, tarixda birinchi bo'lib dunyo atrofini kezib chiqqan baxtiyor dengizchilar shamlarni yoqib, Santa-Mariya de la Viktoria cherkoviga yo'l olishdi. Ekspeditsiya solnomachisi Pifagettining ishontirib aytishicha, Magellanning ruhi ham ular bilan birga edi.

«U navigatsiya san'atini hammadan yaxshi bilardi, kimdandir biror narsani o'rganishga ehtiyoji ham yo'q edi... Magellan o'zidan o'chmas nom qoldirdi», – deb yozgan edi Magellan haqida ekspeditsiya solnomachisi Antonio Pifagetti.



Dunyo bo'ylab birinchi sayohat: fojiali yakun

Kortes va Pisarro singari konkistadorlardan farqli o'laroq Magellan yangi yerbarni tinch yo'l bilan birlashtirib olishga harakat qildi. Qattiqko'l va badjahl bu odam o'z flotiliyasida qattiq intizom o'rnatgan bo'lsa-da, hech qachon shafqatsizlik qilmagan. U har doim, hattoki masala majusiylargaga taalluqli bo'lganda ham o'z so'zining ustidan chiqqan.

Ispanlarning Filippindagi hukmronligini mustahkamlash uchun yirik Sebu orolining boshqaruvchisi, mahalliy yo'lboshchilardan birinchi bo'lib xristianlikni qabul qilgan Xumabonani boshqa barcha ustidan hukmron deb e'lon qilindi. Magellan kimdir uning hukmronligiga qarshi chiqsa, harbiy yordam ko'rsatishini va'da qilgan. Shunda qo'shni mittigina orol Maktan yo'lboshchisi Lapu-Lapu bilan bo'lgan munosabatlar chigallashdi. Magellan nafaqat hukmron deb e'lon qilingan Sebu, balki yon-atrofdagi barcha orol hukmdorlari bir narsani anglab olishlari kerak deb qaror qildi: ispanlarga so'zsiz bo'ysunish lozim, aks holda jazo shafqatsiz bo'ladi.

«Viktoriya» kemasi.
Qadimiylar gravyura




Konkistadorlar (*ispancha «zabt etuvchilar»*) – ispanlarning XV–XVI asrlarda Janubiy va Mar-kaziy Amerikaga qilgan bosqinchilik yurishlari qatnashchilari.



ri edi. Ulkan suzib yuruvchi uylarni (kemalar) boshqarib kelgan jangchilarning oq tanli yo'lboshchisi **Ernan Kortesni** mahalliy aholi xudo – Uchar ilon o'rnidagi qabul qildi. 1519-yilda bor-yo'g'i 550 dengizchi-konkistadordan iborat ekspedetsiyaga boshchilik qilgan Ernan Kortes xudo rolini qoyilmaqom qilib o'rnatlatdi.

Mutlaq hokimiyat va so'zsiz itoat etishga ko'nikkan qat'iyatsiz va bo'sh imperator Montesuma pora berib Kortesdan qutulishga harakat qilib ko'rdi, biroq ispanlar qancha ko'p oltinga ega bo'lsalar, ularning ochko'zliklari shunchalik ortdi. O'ta zolim, makkor va firibgar Kortes atigi ikki yil ichida Meksikaning general-kapitani martabasini qo'lga kiritgan Kortes yana ikkita – daryo havzasi Santa-Mariyaga (1523) va Gondurasga (1524–1525) uyushtirilgan harbiy harakatga boshchilik qildi. U 1535-yilda Kaliforniya yarimoroli qirg'oqlarining uncha katta bo'limgan qismini aniqladi.

**Konkistadorlar atsteklar
shahrida**



Kortes tomonidan Meksikaning zabit etilishi

Qadimgi afsonaga ko'ra, bir kuni ko'chmanchi atsteklar kaktusga qo'nib tumshug'ida zaharli ilonni tishlab turgan burgutni uchratishadi. Bu xudo tomonidan berilgan belgi edi. 1325-yilda shu yerda bo'lg'usi imperiya poytaxti **Tenochtitlan** (hozirgi Mexiko)ga asos solindi.

Hozirgi Meksika o'rnidagi qachonlardir qudratli atsteklar imperiyasi joylashgan edi. Amerika kashf etilgan vaqtida atsteklar 370 qabila joylashgan ulkan hududga egalik qilishardi. Bosib olingan xalqlar o'lpon to'lashar, ular bilan shafqatsizlarcha munosabatda bo'linar edi, ko'plab asirga olinganlar qonxo'r xudolarga qurban qilinardi. Bunday sharoitda kam sonli ispanlarning o'zlariga ko'plab ittifoqchilar topganiga ajablanmasa ham bo'ladi.

Atsteklarning eng qadrlaydigan xudolaridan biri **Ketsalkoatl** (Qanotli ilon) edi. Afsonalarga ko'ra, sharqdan dengiz ortidan suzib kelgan bu oq tanli soqolli (indeyslar soqolsiz) xudo odamlarga ilm-fan olib kelgan: kalendor, matematika, astronomiya, toshga va metallga ishlov berish san'ati. U indeyslarga dehqonchilik va hunarmandchilikni o'rgatdi, yeb bo'ladigan va dorivor o'simliklarni ko'rsatdi, qonunlarni berdi. Bu xudo, indeyslarni hayratda qoldirgan holda odamlarni qurban qilishni talab qilmadi.



Ketsalkoatl vataniga qaytib ketdi, biroq u qaytib kelishga va'da berdi. Og'ir quolyarog'lar taqqan konkistadorlar paydo bo'ilganda, indeyslar hayratdan lol qoldilar. Kelgindilarning bir qismi otlarga minib olishgandi. Atsteklar bu hayvonlarni birinchi marta ko'rib turishla-

Ernan Kortes

Pisarro Yangi Dunyo qirg'oqlari (hozirgi Peru hududi)ga 200 piyoda askar va 27 ta ot bilan yetib kelgandi. Lekin yo'lda uning qo'shini inklar hukmronligidan norozi bo'lgan odamlar hisobiga anchaginaga ortdi.



Ataualpa nima uchun uni tuzoqqa tushirishlariga yo'l qo'yib bergenligini tushuntirib berish qiyin. 1532-yil 16-noyabrdan u ko'p sonli mulozimlari bilan, garchi ular konkistadorlarning yo'l-boshchisi **Fransisko Pisarro** talab qilganidek qurollanmagan bo'lsalar-da, Kxamarka maydoniga yetib keldi.

Shafqatsiz va makkor Pisarro Ataualpaning oltin taxtiravoniga yaqin kelib, imperatorning sochidan ushlab tortib tashqariga sudrab chiqди. Ispanlar shu zahoti imperatorning mulozimlariga tashlanishdi va yarim soat ichida ularni qirib tashlashdi. Asirga tushgan Ataualpa o'zi o'tirgan xonani ikki marta kumush va bir marta oltinga to'lg'azish evaziga erkinlikka chiqishga rozi bo'ldi. Biroq bu imperatori qutqarib qola olmadи. Ispanlar uni makkorna suiqasdda, ya'ni «ispan davlatiga qarshi jinoyatlarda» ayplashdi va rasmiyatichilik uchun qisqagina sud qilib 1533-yil 29-avgustda qatl qilishdi.

Pisarro tomonidan ochilgan Janubiy Amerikaning Tinch okeandagi Guayakil qo'Itig'dan boshlab 1200 kilometrga cho'zilib ketgan qirg'oqlari geografik kashfiyotlar jumlasiga kiradi. Uning choparlari bu qirg'oqdan yana 700 km ichkari-gacha kirib borishdi. U Ispaniyaga tegishli yerlarni 1 mln km² kengaytirdi.



Tosh haykalda
inklarning
xudolaridan
biri aks ettirilgan

Buyuk imperianing qulashi

Bundan besh yil ilgari hozirgi Ekvadoridan Chiliga qadar bo'lgan hududda kattaligi bo'yicha Rim imperiyasiga teng keldigan ulkan davlat joylashgan edi. Imperator Buyuk Ink hukmronligi ostida 12 mln ga yaqin indeyslar bor edi. Bu davlat rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan Yangi Dunyo davlatlari orasida ajralib turardi.

Inklarning pog'ona-pog'ona bo'lib tura-digan yer maydonlari, o'z davridan ancha ilgarilab ketgan irrigatsion qurilmalari hozirgacha yuqori hosil olib kelayotgan indeyslar-ga xizmat qilib kelmoqda. Inklar yaxshigina jarroh va matematik, arxitektor va astronom ham bo'lishgan.


XVI asrda bu yerga konkistadorlar bostirib kirdilar va ular mahal-liy aholi tomonidan juda yaxshi kutib olindilar. Kolumbning 1493-yilda yozgan xatidagi mana bu jumla Yangi Dunyo aholisi, xususan, inklarning qandayligini ko'rsatib beradi: «Ulardan nimani so'rama, hech qachon rad etishmaydi, aksincha, hamma narsani baham ko'rishadi va barchaga, hattoki jonlarini berishga ham tayyordek iltifot bilan munosabatda bo'lishadi».

Inklarning so'nggi imperatori **Ataualpa** razvedkachilarining ma'lumotlaridan ispanlarning barcha harakatlari, hatto ularning rejalaridan ham xabardor edi. Biroq razvedkachilar ispanlarning otlari kechasi ko'rmaydi, odam va ot – yagona mavjudot, yiqilsa, so'ngra qayta jang qila olmaydi, ularning arkebuzlari, ya'ni piltali miltiqlari faqatgina yashin chiqaradi, u ham bo'lsa faqatgina ikki marta, ispanlarning uzunpo'lat nayzalari esa jang uchun mutlaqo yaroqsiz deb imperatorni ishontirishdi.



*Inklarga tegishli
shaharlardan birining
xarobalari*

tavakkalchilar guruhi ulardan ajralib chiqib, sharqqa qarab yo'l olgan. Eldoradoni izlash yo'lida ochilgan eng buyuk kashfiyot aynan ularga nasib etdi: ular ulkan, biroq sokin daryoni topishdi va unga Amazonka deb nom berishdi. Belelkasar va Orelyanadan so'ng ularning izidan boshqa konkistadorlar ham yo'lga otlanishdi. Ular orasidan eng o'jari Trinida gubernatori **Antonio de Berrio** bo'lib chiqdi. Ingliz admirali **Uolter Reyli** Berrioni asirga olganda u barcha bilganlarini aytib berdi.



Inklarning oltin buyumi

Reyli kemalarni Angliyaga qaytarib olib ketdi, biroq uning niyatni ortga qaytish va Eldoradoni zabit etish edi. 1603-yilda Reylining homiysi – ingliz qirolichasi **Yelizaveta I** vafot etdi. Reylini esa davlatga xiyonatda ayblashdi. Biroq Yakov I o'lim jazosini ijro etishga oshiqmadni.

Oradan 13 yil o'tib, pulga o'ta muhtoj bo'lib qolgan qirolning yodiga Eldorado tushadi. Admiral Reylini oltin topib kelishi uchun ekspeditsiyaga jo'natishadi, biroq u muvaffaqiyatsiz tugaydi va Uolter Reyli 1618-yil Eski Vestminster saroyida qatl etiladi. Shunday qilib, afsonaviy boyliklar mamlakati topilmadi.

Orelyana mahobatlari daryo qirg'oqlarida mahalliy qabilani uchratadi, bu qabila ayollari kamondan bezato o'q uzardilar. Ularni qadimiy yunon afsonalari-dagi jangchi ayollarga o'xshatgan Orelyana bu dar-yoga Amazonka nomini berdi.



Eldoradoni izlab

Eldorado, ispancha «oltin mamlakat», ispan bosqinchilari XVI–XVII asrlarda Janubiy Amerikada (asosan Orinoko va Amazonka daryolari havzasida) tinmay izlagan oltin va javohirlarga boy mamlakat.

1535-yilda ispan konkistadori **Sebastyan Belalkasar** inklarning shimoliy qabilalari (Ekvador va Kolumbiya hududi)ni bosib olganidan so'ng unga yangi yo'lboschchi saylash bilan bog'liq udumlar haqidagi hikoyalarni so'zlab berishgan. Bo'lajak yo'lboschchiga loy surkab, ustidan oltin qum sochishgan. «Tilla» odam oltin va zumradlar yuklangan solga qarab yurgan, unga chiqib ko'l o'rtafiga qadar suzib borgan va suvgaga sakragan. Javohirlar ko'l tubiga tushib ketgan va yo'lboschchi suv yuzasiga chiqqan. Agar uning ustidagi oltin qum oxirigacha yuvilib ketgan bo'lsa, demak, u xudolarga ma'qul kelgan.

Belalkasar shu zahoti bunday marosimlardan so'ng ko'l tubiga xazina qoladigan mamlakatni izlab yo'lga tushdi. Ekspeditsiya Andni bosib o'tgandan so'ng **Fransisko de Orelyana** boshchiligidagi


*Kolumbiyadagi
afsonaviy Guatavita
oroli ilgarigidek
inklar xazinasini o'z
bag'rida saqlab
kelmoqda*



Dreyk flotiliyasi Magellan bo'g'ozi orqali Tinch okeanga chiqqanda dovul boshlanib qoladi. Kemalardan biri izsiz yo'qoladi, bo'ron orqaga uloqtirib tashlagan yana bir kema amallab Atlantika okeangiga chiqib oladi va Angliyaga qaytadi, uchinchisini esa ilgariroq yoqib yuborishga to'g'ri kelgandi. Faqat «**Pelikan**» kemasigina Tinch okeandan suzib o'tishga muvaffaq bo'ldi va unga «**Oltin bug'u**» deb qaytadan nom berildi. Ikki oy ichida bo'ron uni janub yo'nalishida uzoq-uzoqlarga olib ketdi. Oktabr oxirlarida dengizchilar janub tomondagi eng chekka orolni ko'rib qoladilar. Cheklanmagan suv havzasining ochilishi Dreykka Olovli Yer sirli janubiy maturikning bo'rtib chiqib turgan joyi emas, balki bir-biriga yaqin orollardan iborat arxipelag ekanligi, uning ortida chegarasi yo'q dengiz cho'zilib ketganligini isbotlashiga imkon berdi.

Antarktida ochilgandan keyin u bilan Olovli Yer o'rtasidagi keng
dara **Dreyk bo'g'ozi** deb ataldi.

Dreyk ispan portlariga hujum qilishda davom etgan holda Tinch okean qirg'oqlari bo'ylab oldinga yurdi. Shundan keyin u Tinch okeanni kesib o'tib, Molukka orollariga chiqdi va Afrikani aylanib o'tib, 1580-yil sentabrda Angliyaga qaytib keldi. U o'zi bilan Angliyaning bir yillik daromadidan ikki barobar ko'p qiymatga ega bo'lgan oltin-javohirlar olib keldi. Ushbu ekspeditsiyasi uchun Dreykka ritsarlik unvoni berildi.



«Qirolichcha qaroqchisi» Dreykning dunyo bo‘ylab sayohati

Inglizlardan birinchi bo‘lib dengizchi va korsar (dengiz qaroqchisi) ser **Frensis Dreyk** dunyo bo‘ylab sayohat qildi (1577–1580). U Gravelin jangida (1588) Yengilmas armada – ispan flotini tor-mor qilgan ingliz flotiga qo‘mondonlik qilgan.

1577-yil noyabrda ingliz qirolichasi Ye-lizaveta I Dreykni Amerikaning Tinch okean havzasidagi qirg‘oqlariga ekspeditsiya yubordi. Sayohatning rasmiy maqsadi yangi yerlar, xususan, Avstraliyani ochish bo‘lsa-da, aslida Dreyk Amerikaning Tinch okean qirg‘oqlaridagi Ispaniyaga tegishli qirg‘oqlariga hujum qilib, iloji boricha ko‘proq oltinni qo‘lga kiritishi lozim edi.


Dreyk to‘rtta kemada Plimutdan yo‘lga chiqdi. 1578-yil aprelda u La-Plata daryosining quyilish joyiga yetib bordi, janubga qarab yurgan Dreyk Patagoniya qirg‘oqlarida qulay gavanni uchratdi. Uning hamrohlaridan biri patagonliklarni shunday ta’riflagandi: «Ular juda xushmuomala va rahmdil odamlar bo‘lib chiqishdiki, biz hech qachon, xristianlar orasida ham bunaqasini uchratmagan edik...»



Frensis Dreyk

12 yoshida Dreyk savdo kemasiga yunga bo‘lib ishga joylashdi. Kema egasi o‘z shogirdidan juda minnatdor edi, u o‘limi oldidan Dreykka o‘z kemasini vasiyat qilib qoldirdi. Shunday qilib, 18 yoshida Dreyk to‘la huquqli kapitanga aylandi.





Avstraliyada
joylashgan
dunyodagi eng
katta xarsangtosh-
qoya – Ayers Rok

janubiy materikni topish edi. **Luis Vaez Torres** Yangi Gebridlar arxipelagini ochdi, birinchi marta Marjon dengizini kesib o'tib, Yangi Gvineyaning janubiy qirg'oqlari yonidan o'tib ketdi va janub tomonidan Avstraliyaning shimoliy qirg'oqlarini ko'rdi.

1642-yilda Hindixitoy general-gubernatori gollandiyalik **Van Dimen** janubiy materikni izlash uchun **Abel Tasman** boshchiligidan ikkita kemada 110 kishidan iborat ekspeditsiya jo'natdi. Tasman katta orolni kashf qilib, uni ehtirom yuzasidan Van-Dimen yeri deb atadi (hozir bu Tasmaniya deb ataladi), shuningdek, Yangi Zelandiya, Fiji va Tonga orollarini ochdi. 1644-yildagi ikkinchi sayohatida u Avstraliyaning 4,7 ming km ga cho'zilib ketgan shimoliy qirg'oqlarini birma-bir rejaga olgan.

Oradan yuz yildan oshiqroq vaqt o'tib materikning janubi-sharqiylig'ini mashhur kapitan Kuk tadqiq qilgan va uni Britaniya yerlari deb e'lon qilib, unga Yangi Janubiy Uels deb nom bergen.

1786-yilda Angliyada kapitan Kuk tomonidan ochilgan mamlakatni mustamlakaga aylantirishiga ingliz tabiatshunosi Jozef Banksning taklifiiga ko'ra u yerga jinoyatchilarni surgun qilishga qaror qilingan.



Avstraliyaning ochilishi

Antik davr geograflari ham Yerning sharsimon ekanligini bili-shardi. Ular Janubiy yarimsharning katta qismini quruqlik egallagan deb taxmin qilishgan. Taxmin etilgan kontinent Notanish Janubiy yer deb atalgan.

Vasko da Gama Afrikani aylanib o'tib Hindistonga borish yo'lini och-gandan keyin portugaliyaliklar Molukka orollariga yetib bordilar. Ular ilk marotaba Avstraliyaning shimoli-g'arbiy qirg'oqlariga tashrif bu-yurdilar. 1916-yilda G'arbiy Avstraliyada, Robak ko'rfazi qirg'oqlarida (180 j.k.) karonadalar – XVI asr boshlaridan oldin quyib tayyorlangan, Portugaliya davlati ramzi tushirilgan uncha katta bo'limgan bronza zambaraklar, shuningdek, materik qirg'oqlari tushirilgan maxfiy xarita-lar topildi. Demak, 1540-yilga qadar ham Portugaliya kemalari ahyon-ahyonda Avstraliyaning shimoliy va shimoli-sharqiy qirg'oqlariga kelib turishgan. Etimol ular ko'p marta bu yerlarga tashrif buyurish-gan bo'lishsa-da, bular tasodifly tashriflar bo'lgan.

1605-yil dekabrda ispan ekspeditsiyasi Janubiy Amerikaning g'arbiy qirg'oqlaridan g'arbga qarab yo'nga chiqdi, uning maqsadi afsonaviy

XVII asrda
xaritalarda
katta janubiy
materik tas-
virlana
boshlandi



Mustamlakalar uchun bo'lgan jangda har ikkala tomondan ham indeyslarning turli qabilalari faol ishtirok etishdi. Bu yerlarda fransuzlar yoki ingilzlar qolishi ko'pincha ushbu qabilalarning qarorlari va xatti-harakatlariga bog'liq bo'lardi.



fort qurishib unga qirol nomini berishdi, keyinchalik bu fort Jeymstan deb qayta nomlandi. **Fransuzlar 1608-yilda Shimoliy Amerikada Kvebek qo'rg'onini qurib, o'zlarining birinchi mustamlakalariga asos solishdi.** XVII asr oxiriga kelib Yangi Fransiya yangi Angliyaga qaraqanda anchagina katta joyni egallardi, biroq fransuzlar og'ir xatoga yo'l qo'yishdi. Ular indeyslarning eng qudratli guruhi bo'lgan Olti xalq yoki irokezlar bilan urishib qolishdi. Bu janjaldan so'ng 1684-yilda irokezlar inglizlar bilan ittifoq tuzishdi.

Inglizlar va fransuzlar o'rtasida Shimoliy Amerikada mustamlakalarni qo'lga kiritish uchun bo'lgan jang Angliyaning g'alabasi bilan tugadi.



Qadimiy xaritada
Jak Kartye
va fransuz
mustamlakachilari
tasvirlangan

Shimoliy Amerikaning inglizlar va fransuzlar o'rtaida qaytadan taqsimlanishi

1533-yilda fransuz qiroli **Fransisko I** Rim papasidan 1493-yilda Portugaliya va Ispaniya o'rtaida dunyoning taqsimlab olinganligi faqatgina o'sha paytgacha ochilgan yerlarga taalluqli ekanligi haqidagi qarorni olishga muvaffaq bo'ldi. Buning natijasida erkin harakat qilish huquqini qo'liga kiritgan Fransiya mustamlakalarni bosib olishga kirishdi.

1534-yilda fransuz **Jak Kartye** Shimoliy Amerikani fransuzlar mustamlakasiga aylantirishni boshlab berdi. U Ilohiy Lavrentiy qo'itig'ini, Shahzoda Eduard orolini ochdi va qirg'oqqa tushdi (keyinchalik Kanada-ga tegishli), so'ngra Ilohiy Lavrentiy daryosi bo'ylab yuqoriga ko'tarildi.

Kartye xushmanzaraligi bilan uni lol qoldirgan joyga Montreal (shohona tog') nomini berdi. Aynan shu yerda indeyslar qishlog'i o'rnda keyinchalik Montreal shahri yuzaga keldi.

Biroq tez orada inglizlar tashabbusni o'z qo'llariga olishdi va 1583-yilda Sent-Jon fortida Nyufaundlendga asos solindi. 1584-yilda inglizlar hozirgi AQSh sharqiy qirg'oqlariga joylashib olishga anchagina urinishdi, ammo indeyslar, shuningdek, ispanlar tomonidan tez-tez uyuştirib turilgan hujumlar tufayli mustamlakaga aylantirishni to'xtatishga majbur bo'ldilar.

Angliyaning janubi va shimolida joylashgan va hozirda AQSh ga tegishli bo'lgan ingliz qishloqlari XVII asr boshlarida paydo bo'lgan. Mustamlakachilar uchta kema-da besh oy davom etgan, yo'lda ochlik va kasallikdan bir necha o'nlab kishi halok bo'lgan og'ir safardan so'ng 1607-yilda Chezapik ko'rfafiga yetib keldilar. Bu yerda ular yog'och



Jak Kartye

Tinch okean shimolidagi orol, dengiz va bo'g'oz kapitan-komandor Bering nomi bilan atalgan. Sibirning shimoli-sharqiy qismi, Chukotka va Alyaskani ba'zan umumiy nom Beringiya deb ham atashadi.



qayd etildi. Bu tog'lar ko'p joylarda dengizga juda yaqinlashib ham qolgan edi. Ekspeditsiya, shuningdek, chuqurliklarni o'lchadi.

1740-yildagi **Ikkinci Kamchatka ekspeditsiyasida** Vitus Bering va Aleksey Chirikov ikkita «**Ilohiy Pyotr**» va «**Ilohiy Pavel**» paketbotlari Oxotskdan Kamchatkaning sharqiy qirg'oqlariga chiqishdi. Bu yerda aholi yashash joyiga asos solindi, keyinchalik bu joy Kamchatkaning poytaxti – Petropavlovsk-Kamchatskiyga aylandi.

1741-yil 4-iyunda **Bering va Chirikov yevropaliklar orasida birinchi bo'lib Amerikaning shimoli-g'arbiy qirg'oqlariga chiqdilar**. Tez orada bo'ron ularni ikki tomonga ajratib yubordi va Chirikov ortga Kamchatkaga qayrildi. Eskirgan kema va uning abzallarini kuchli shamlol chirpirak qilib o'ynatdi, natijada «**Ilohiy Pyotr**» kemasi Avacha (hозири Bering) oroliga kelib urildi. Oziq-ovqatlarning yetishmasligi, kasallik va sovuq tufayli komandanining katta qismi halok bo'ldi, Beringning o'zi ham 1741-yil 8-dekabrda vafot etdi.



Bering bo'g'ozি

Rossiyalik kashfiyotchilar

Rossiyalik kashshoflar – yangi yerlar va yangi savdo yo'llari ochgan jasur va dovyurak sayyoohlardir. XIX asrga kelib yer yuzining yetib borish mushkul bo'lgan joylarigina ochilmay qolgan edi. Ularning aksariyati aynan rossiyalik sayyoohlar tomonidan ochildi.

Komandor Bering

Vitus Bering 1681-yilda Daniyaning Xorsens shahrida tug'ildi, 1703-yilda rus armiyasiga xizmatga kirdi va Shimoliy urush davridan boshlab rus flotida xizmat qildi, Turkiya bilan bo'lgan urushda ishtirok etdi.

Shoh Pyotr I buyuk ishlardan biri Rossiya va qo'shni davlatlar geografiyasini o'rghanish bo'ldi. U Shimoliy Amerikaning qirg'oqlarini izlash uchun ekspeditsiya jo'natishga qaror qildi, ekspeditsiyaga rahbar etib Vitus Beringni tayinladi, bu qirg'oqlar uning taxminiga ko'ra Kamchatkaga yaqin joyda joylashgan, yoki hattoki Osiyoga ulanib ketgan ham bo'lishi mumkin edi.

Birinchi Kamchatka ekspeditsiyasi 1728-yilda Chukotka dengizi (Shimoliy muz okeanining Osiyo va Shimoliy Amerika qirg'oqlaridagi dengiz)ga chiqdi, shundan keyin ortga qayrildi, chunki Bering Osiyo va Shimoliy Amerikadagi qirg'oqlar birlashib ketmaganligini isbotladi. So'ng kemalar Kamchatkani janubdan aylanib o'tib Kamchatka qo'ltig'ini va Avachin ko'rfazinи ochdilar.

Tadqiqotchilar Shimoli-sharqiy Osiyoning 2500 km qirg'oq chizig'ini xaritalarga kiritdilar. Bu qirg'oqlar bo'ylab hattoki yozda ham qor bilan qoplanib turadigan baland tog'lar cho'zilib ketganligi



Vitus Bering

ham bor edi. Ekspeditsiyaning oldiga murakkab vazifa qo'yilgan edi: ikki okeanni kesib o'tish, o'zining dovullari bilan mashhur xavfli Gorn burnini aylanib o'tish, 600 sh.k. ga ko'tarilish, kam o'rganilgan qirg'oqlarga tashrif buyurish.

Sayohatning birinchi qismi, ya'ni Angliyaga yetib borish, so'ngra Atlantika okeani orqali Gorn burnini aylanib o'tishni ikkala kema birgalikda amalga oshirgan bo'lsa, undan keyin Sandvich (Gavayi) orollaridan boshlab «Nadejda» Yaponiya va Kamchatkaga, «Neva» esa Rus Amerikasiga qarab yo'l oldi. Janubiy Xitoy atrofida uchrashgan har ikki kema Yaxshi Umid burunidan o'tib Rossiyaga jo'nadi.

Sayohat vaqtida qimmatbaho botanik, zoologik va etnografik kolleksiyalar to'plandi, astronomik, meteorologik va okeanografik kuzatishlar olib borildi. 1809–1812-yillarda I. F. Kruzenshtern o'zining uch tomli «Dunyo bo'ylab sayohat» asarini chop ettiidi. Bir necha tillarga tarjima qilingan ushbu asar birdaniga mashhur bo'lib ketdi. 1813-yilda «Kapitan Kruzenshternning dunyo bo'ylab sayohati atlasi» chiqdi. Keyinchalik Kruzenshtern keng ko'lamli izohlar bilan «Janubiy dengiz atlasi»ni chop ettiidi. 1845-yilda I. F. Kruzenshtern Rus geografik jamiyatining ta'sischilaridan biriga aylandi.



Yuriy Fyodorovich
Lisyanskiy

«Nadejda» va «Neva» kemalarida dengiz oqimlari, suv harorati va zichligi ustida olib borilgan ko'p sonli kuzatishlar yangi fan – okeanografiya fanining rivojlanishiga turtki berdi.



Kruzenshternning dunyo bo'ylab sayohati

Dunyo bo'ylab birinchi rus ekspeditsiyasi Xitoy, Yaponiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish va Shimoliy Amerika hamda Uzoq Sharqdagi rus yerlariga yuklarni yetkazib berish yo'llarini izlash maqsadida tashkil etildi.

Ekspeditsiyani rossiyalik dengizchi **Ivan Fyodorovich Kruzenshtern** boshqardi. Ilgari u Britaniya flotida xizmat qilib, yaxshigina tajriba orttirgandi. U Xitoy va Hindistonda bo'lib, Amerikadagi ingliz-larga qaram yerlar bilan tanishgandi. Rossiyaga qaytgach, imperator Pavel I ga o'zining dunyo bo'ylab safar qilish loyihasini taqdim etdi, biroq bu loyihani Aleksandr I taxtga o'tirgandan so'nggina amalga oshirish imkonи paydo bo'ldi.

I. F. Kruzenshtern qо'mondonligidagi «Nadejda» va Y. F. Lisyanskiy qо'mondonligidagi «Neva» kemalaridagi dengiz safari o'sha paytlardagi aksariyat dunyo bo'ylab sayohatlar singari uch yil

(1803–1806) davom etdi. Yo'Ining bir qismini kemalar alohida-alohida bosib o'tdilar. Ik-kala kapitan ham safarlarini batafsil yozib bordilar.



Ivan Fyodorovich
Kruzenshtern

«Nadejda» komandasи 58 kishidan, «Neva» esa 47 kishidan iborat edi. Ular ko'п sonli ko'ngillilar ichidan tanlab olingen edi. Ekspeditsiya o'sha davrning eng mukammal astronomik, fizik va navigatsion asbob-uskunalar bilan jihozlangan edi. Uning tarkibiga astronom I. Gorner, tabiatshunoslar V. Tilezius fon Tilenau va G. Landsdorflar kiritilgan edi. «Nadejda» kemasi bortida Rossiya-Amerika kompaniyasining direktor-ta'sischilaridan biri N. P. Rezanov



Faddey Faddeyevich
Bellinsgauzen



Mixail Petrovich Lazarev

u yerda bir necha joyda keti uzilmaydigan yaxlit muzliklarni uchratib, bundan uyog'iga janubga yurishning iloji yo'qligini aytdi. Unga ishonishdi va 45 yil davomida Janubiy qutbga ekspeditsiyalar uyuشتirilmadi.

Bellinsgauzen bu fikrning noto'g'ri ekanligini isbotladi va muzda suzishga moslashmagan ikkita kichikroq yelkanli kemada, doimiy qiyinchiliklar va xavf-xatarga qaramasdan janubiy qutb o'lkasini tadqiq etish borasida nihoyatda ko'p xizmat qildi.

«Vostok» va «Mirniy»
shlyuplari Antarktida
qirg'oqlarida



Janubiy materikning kashf etilishi

1819-yilning boshlarida Janubiy materikni izlash uchun ekspeditsiya yo'liga chiqdi. Ekspeditsiyaga «Vostok» shlyypi kapitani **Faddey Faddeyevich Bellinsgauzen** qo'mondonlik qildi. «Mirniy» shlyypi kapitani esa **Mixail Petrovich Lazarev** edi.

Rus ekspeditsiyasi 1820-yilning yanvarida «haddan tashqari baland katta muz»ga yetib bordi. Shunda Bellinsgauzen kemalarni sharqqa qarab olib ketdi, u iloji boricha janubga qarab suzishga harakat qildi.

1820-yilning yanvar oyi oxirlarida ingliz kapitani Jeyms Kukdan so'ng birinchi marotaba **Janubiy qutb doirasi** yana bir marta kesib o'tildi. Tez orada kemalar Antarktida qirg'oqlaridan bor-yo'g'i 36 km masofada turardi. Havo ochiq va osmon musaffo bo'lganligi tufayli ikkala kemadagilar ham uzoqdan tor bo'yin orqali uncha baland bo'limgan tog' tizmalari bilan birlashib ketgan juda baland burnni ko'rishdi. Bu tog'li qirg'oq janubga qarab ko'z ilg'ammas uzoqlikkacha cho'zilib ketgandi. Bellinsgauzen bu yerga Aleksandr I Qirg'og'i deb nom berdi, biroq yo'i butkul muz bilan qoplanganligi sababli qirg'oqqa yetib bora olmadi. Agar u qayiqlarni tushirib, bo'yingacha yetib borganda edi, ruslar Antarktida yeriga birinchi bo'lib qadam bosgan bo'lar edilar. Biroq Bellinsgauzen kemalarni sharqqa – Dreyk bo'g'oziga qarab burdi.

Bellinsgauzen ekspeditsiyasining safari haqli ravishda eng muhim va mashaqqatli sayohatlardan biri hisoblanadi. Mashhur Kuk XVIII asrning 70-yillarida birinchi bo'lib janubiy qutb dengizlariga yetib bordi,

F. F. Bellinsgauzen «Nadejda» ekipajji tarkibida Rossiya floti tarixida birinchi marta dunyo bo'ylab sayohat qildi. Keyinchalik M. P. Lazarev ham «Suvorov» kemasi kapitani sifatida dunyonи aylanib chiqdi.



va jazirama» vodiysi boshlanib ketardi. Bu vodiyidan oshib o'tgan tadqiqotchi **Verniy** shahri (hozirgi Olma-Ota shahri) ga yetib bordi.

Shu yilning o'zida olim Issiqko'lga chiqdi. «Issiqko'l havzasini janub tomondan ulkan qor o'rakachlari bilan o'rabi olingan», – deb ta'riflagandi Semyonov o'z taassurotlarini. Bu uning «orzusidagi Tyan-Shan» – Terskay Olatov tizmasi (G'arbiy Tyan-Shan tog' tizmalari) edi.

Terskay Olatov dovonidan turib u afsonaviy manzaradan zavq olardi. Uning ko'z o'ngida «u ko'rgan tog'lar ichida eng purviqor... tog' tizmasi yuksalib turardi. U tepadan pastga qadar ulkan qor uyumlaridan iborat edi... Uning eng o'rtasida bitta, balandligi bilan boshqalardan keskin ajralib turgan, qordek oppoq piramida» – uzoq vaqtlar Tyan-Shanning eng yuqori nuqtasi deb hisoblab keltingan (6995 m) **Xon-Tengri** yuksalib turardi. Sari-Jaz daryosi vodiysiga tushgan Semyonov daryo yoqalab uning yuqorisiga chiqib bordi va shu yerlarda ulkan muzliklarni ochdi, so'ngra Verniy shahriga qaytib ketdi.



Tyan-Shan

P. P. Semyonov tomonidan Tyan-Shanning tadqiq etilishi

Tyan-Shan O'rta va Markaziy Osiyodagi tog' tizimi. Markaziy Tyan-Shanga kirib kelgan birinchi yevropalik tadqiqotchi – olim **Pyotr Petrovich Semyonov** bo'ldi. 1856-yildan boshlab u bu hududga bir qator murakkab ekspeditsiyalarini amalga oshirdi va ilm yo'lida qilgan jasoratlari uchun Tyan-Shanskiy deb atalish huquqini qo'lga kiritdi.



1853-yoldayoq Semyonov sirli Tyan-Shanni borib ko'rishga qaror qildi. Rossiya Tashqi ishlar vazirligi Osiyo mamlakatlarini «geografik fanlar suqilib kirishidan» juda ehtiyyot qilib saqlardi, lekin shunga qaramasdan olim Olttoy va Qirg'iz dashtlariga borish uchun ruxsat olishga muvaffaq bo'ldi.

Pyotr Petrovich Semyonov-Tyan-Shanskiy

1856-yilda Semyonov Semipalatinskdan o'zining «qurib qolgan uchi» – Ala Ko'l orqali Markaziy Osiyo tog' tizmasini bir zaydag'i qirg'iz dashtlaridan ajratib turadigan Balxash ko'liga yetib bordi. Balxashdan janubi-sharq tomonda u «ko'zni qamashtiradigan darajada tovlanib turgan... doimiy qorlar» bilan qoplanган janubig'arbga qarab cho'zilib ketgan baland tog' tizmalarini ko'rdi va uni Jung'ariya Olatovi deb atadi. Bu tizma ortida Ili daryosining «past

Rus olimi «Plutoniya» va «Sannikov yeri» kitoblarining muallifi V.A.Obruchev ilk marotaba Markaziy Osiyo – uzoq vaqt mobaynida yemirilgan va hech qachon dengiz bilan qoplanmagan qadimiy tog'li mintaqasi ekanligini aniqladi.



N. M. Prjevalskiy Tibetning tarixiy poytaxti Lxasaga boradigan yo'lni topdi. Biroq uning otryadi Tibet hukmdori Dalay-lamani o'g'irlash uchun yuborilgan degan mish-mishlar tarqaganligi sababli unga u yerga yaqinlashishga yo'l qo'yishmadi.



1883–1886-yillarda u to'rtinchi marta sayohat qildi: u Tibetga bordi, so'ngra Sariq daryoning boshlanish joyini o'rgandi, u yerdan Qorako'l shahriga (hозирги Prjevalsk) yo'l oldi. 1888-yilda Samarqand orqali rus-xitoy chegarasiga chiqdi, u yerda ov vaqtida daryo suvidan ichib ichterlama kasaliga chalindi va tez orada vafot etdi. Buyuk sayohatchi **Issiqko'l** qirg'og'ida dafn etildi. Rus geografik jamiyatni N. M. Prjevalskiy nomidagi oltin medalni ta'sis etdi.



Prjevalskiy oti. 1879-yilda Markaziy Osiyoda topilgan yangi ot turi

N. M. Prjevalskiy Markaziy Osiyo tadqiqotchisi

Nikolay Mixaylovich Prjevalskiy buyuk sayohatchilardan biri sifatida tarixda nom qoldirdi. Uning Markaziy Osiyo bo'ylab bosib o'tgan yo'lining umumiy uzunligi 30 ming km dan oshadi. Uning kashfiyotlari tufayli olimlarning Markaziy Osiyo haqidagi tushunchalari tubdan o'zgardi.



Nikolay Mixaylovich
Prjevalskiy

Bo'lg'usi sayohatchi 1839-yilda Smolensk guberniyasida tug'ildi. Gimnaziyanı tugatgach harbiy xizmatga kirdi. Varshava yunkerlik bilim yurtida tarix va geografiya o'qituvchisi lavozimida ishlagan vaqtida Prjevalskiy sayohatlar tarixini zo'r berib o'rgandi, zoologiya va botanika bilan tanishdi, geografiyadan darslik tuzdi. 1864-yildayoq u Rus geografik jamiyatining haqiqiy a'zoligiga saylandi.

1870-yilda Rus geografik jamiyati Markaziy Osiyoga ekspeditsiya uyushtirdi. Ekspeditsiya rahbari Prjevalskiy **Mongoliya va Xitoy** cho'llari va tog'lari bo'ylab 11 800 km dan ortiq yo'l bosdi. U Gobi, Ordos va Alashan cho'llari, shimoliy Tibetning baland tog'larda joylashgan mintaqalari, Saydam havzasasi haqida batafsil xarakteristikalar tuzdi. Shuningdek, birinchi marta Markaziy Osiyo xaritasiga yigirmadan ortiq tog' tizmasi, yettita yirik va bir qator kichik orollarni kiritdi. **U yevropa liklar orasida birinchi bo'lib shimoliy Tibetning ichkari hududlariga kirib bordi.**

Tez orada Prjevalskiy ikkinchi sayohatga otlandi. U Tyan-Shan va Tarim daryosi orqali Lobnor ko'liga o'tdi. Uchunchi safarga 1879-yilda Nan-Shan tizmalari orqali Tibetga bordi va undan Moviy daryo vodiysiga chiqdi. Bu sayohat vaqtida u fanga noma'lum bo'lgan ot turini ta'riflab berdi, bu ot keyinchalik uning sharafiga Prjevalskiy oti deb ataldi.

Tez orada Prjevalskiy ikkinchi sayohatga otlandi. U Tyan-Shan va Tarim daryosi orqali Lobnor ko'liga o'tdi. Uchunchi safarga 1879-yilda Nan-Shan tizmalari orqali Tibetga bordi va undan Moviy daryo vodiysiga chiqdi. Bu sayohat vaqtida u fanga noma'lum bo'lgan ot turini ta'riflab berdi, bu ot keyinchalik uning sharafiga Prjevalskiy oti deb ataldi.


Amerikaning beshta kosmik kemalaridan ikkitasi-ga kapitan Jeyms Kuk suzgan mashhur kemalar sharafiga «Indever» va «Diskaveri» nomlari berildi.



okeanga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyaga rahbar etib tayinlashdi. Uning oldiga muhim vazifa qo'yildi – sirli **janubiy materikni** topish.

Jeyms Kuk o'zining birinchi dunyo bo'ylab qilgan sayohati davomida ko'p yerlarni ochgan bo'lsada, asosiy maqsadiga yeta olmadı. Ikkinci dunyo bo'ylab sayohat tamomila janubiy materikni izlashga bag'ishlandi desa ham bo'ladi. Kuk bu safar imkonи boricha janubga yurib, dunyonи aylanib o'tishga qaror qildi. U Janubiy qutb doirasini kesib o'tishga muvaffaq bo'ldi. **U Antarktidadan 200 km uzoqlashganidan so'nggina shimolga qarab qayrildi.** 1778-yilgi uchinchi sayohati vaqtida Kuk o'zining so'nggi kashfiyoti – Gavayi orollarini ochdi. Orolliklar kelgindilarning shlyupkasini o'g'irlab ketdilar, bundan g'azablangan Kuk qabila boshlig'ini hibsga olishga urindi. Shunda orolliklar inglizlarga tashlanishdi va Kuk halok bo'ldi.

*Jeyms Kuk Gavay
orolları aborigenleri
bilan bo'lgan
to'qnashuvda
halok bo'ldi*



XVIII-XIX asrlardagi g'arbiy yevropalik sayohatchilar

Bu davrda yangi yerkarni o'zlashtirishda ispanlar, portugallar, italyanlar bilan bir qatorda inglizlar, fransuzlar, nemislar va gollandlar ham borgan sari faol ishtirok eta boshladilar. Ular tap tortmay okeanlarda kezib, materiklarning ichkarisiga dadil kirib bordilar...

Jeyms Kuk – buyuk sayohatchi

Shotlandiyalik **Jeyms Kuk** 1728-yilda batrak oilasida tug'ildi. U favqulodda qobiliyatli bola bo'lib, kuchli xarakterga ega edi. Jeyms mustaqil ravishda matematika, navigatsiyani o'rgandi va shunday muvaffaqiylatlarga erishdiki, unga savdo kemasiga kapitanlik qilishni taklif qilishdi.

Biroq o'spirin bu taklifni rad etib qirollik flotiga oddiy matros bo'lib ishga kirdi. Oradan ikki yil o'tib Kuk kapitanga aylandi va Fransiya bilan Kanada uchun urush ketayotgan Shimoliy Amerikaga otlandi. U o'zini juda yaxshi ko'rsatganligi sababli uni «**Indever**» kemasida Tinch

*Jeyms Kuk
ning uchinchi
sayohati
marshruti*




necha martalab ag'darilib tush-madi deysiz.

1804-yilda Janubiy Amerika-ga uyuşhtirilgan ekspeditsiyadan qaytib kelgan Gumboldt safari haqida **o'ttiz tomli hisobot** yozdi, unga qariyb bir yarim mingta rasmlar kiritilgan edi. Shundan keyin u qolgan umrini butunlay fanga bag'ishlab, XIX asrning har tomonlama ijod qilgan eng mash-hur olimlaridan biriga aylandi. 1829-yilda Gumboldt Rossiyaga tashrif buyuradi, u Uralda, Oltoyda bo'ladi, Kaspiy dengizini borib ko'radi. Keyinchalik olim barcha il-miy bilimlarini «Kosmos» deb nomlangan yirik asarida umumlashtirib bayon etishga urindi, biroq uning beshinchi tomi tugallanmay qoldi.

Gumboldt fan tarixi, astronomiya, tabiatshunoslikning barcha sohalari bilan shug'ullandi. U geografiya fanining iqlimshunoslik, okeanshunoslik, kartografiya, o'simliklar geografiyasini singari sohalariga asos soldi. Olim hayotlik paytidayoq uni **ikkinci Kolumb va yangi Aristotel** deb atashar va buyuk sayohatchi tabiatshunos deb hisoblashardi.

Janubiy Amerika qirg'oqlaridagi oqim (xaritalarda u Peruan deb ataladi), daryo va tog'lar, shahar va orollar, shuningdek, Oydagi kra-terga uning nomi berilgan.



Orinoko daryosi havzasi

XVIII asr oxirlarida Janubiy Amerikaga borish uchun shaxsan Ispaniya qirolidan ruxsat olish lozim edi. Gumboldt tasodifan qirol bilan uchrashib qoladi va shu ondayoq qimmatli ruxsatnomani oladi!



Aleksandr Gumboldt – sayohatlar ishqibozi

XIX asrning yirik tabiatshunosi, ensiklopedist olim **Aleksandr fon Gumboldt** 1769-yilda Germaniyada saksoniyalik saroy kurfyursti (davlatman knyaz) oilasida tavallud topdi. Aleksandr yoshligida o'qishga qiziqmas, u ko'proq sarguzashtlarga boy olislarga sayohat qilishni orzu qilardi. Universitetga kirgach, unda o'qishga ishtiyoq paydo bo'ldi, u iqtisod, meditsina, fizika, matematika, tarix, botanika, adabiyot, xorijiy tillar va ko'plab boshqa fanlarni o'rgandi. Savdo akademiyasida kommersiya to'g'risidagi ma'ruzalarni tingladi. Xizmatga kirgandan so'ng ham ilmiy mashg'ulotlarini tashlab qo'ymadidi.

Kattagina merosga ega bo'lgach u xizmatni tashladi va nihoyat sayohatchi bo'lishga, noma'lum yerlarni tadqiq qilishga qaror qildi. U Janubiy qutbga uyushtirilayotgan ekspeditsiyaga qo'shilmoqchi bo'lib turganida, eng so'nggi lahzalarda uning nomzodini rad qilishdi.



Aleksandr
Gumboldt

1799-yilda Gumboldt olti yillik sayohatga jo'nadi. U Kuba va Meksikani tadqiq qildi, Chimboraso vulqonini deyarli zabt etib, qariyb 6 ming m balandlikkacha chiqib bordi (o'sha vaqtlardagi dunyo miqyosida alpinistik rekordi). U tomonidan yig'ilgan gerbariy 6 ming o'simlikni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning yarmi ilgari fanga noma'lum bo'lgan o'simliklardan iborat edi. Gumboldt va uning hamrohi, geograf va botanik **Eme Bonplanning** sayohat paytida boshlaridan kechirgan qiyinchilik va xavf-xatarning son-sanog'i yo'q. Ular vulqonlarning otilishi va meteorit yomg'irlarini kuzatdilar, zilzilalarga uchradilar, ularning qayqlari timsohlar va yirtqich baliqlar bilan to'lib-toshgan daryolardan suzib o'tib,

1859-yilda Franklinning xotini ledi Jeyn o'z hisobidan navbatdagি kemani hozirladi va yana bir marta qidiruv ekspeditsiyasini tashkil qildi. **Viktoriya yarimorolida** tosh uyumlari ostida bir necha xatlar topildi, ulardan ma'lum bo'lishicha, bir yarim yil davomida muzlar orasida siqilib qolgan kemalar u yerdan chiqib ketisholmagan va muz maydonlari bilan birga kezib yurgan. Franklinning o'limidan so'ng ekspeditsiyaning tirik qolgan a'zolari kemalarni tark etishgan va qutulishga urinib ko'rishgan, ularning ko'pchiligi butun yo'l davomida ochlik va singa kasalligidan halok bo'lgan.

Jon Franklin xotirasi sharafiga qo'litiq, bo'g'oz, tog'lar, Alyaska va Kanadadagi ko'l, Rossa dengizidagi orol uning nomi bilan atalgan.

Qanchalik ajablanarli bo'lmasin, Franklinning fojiali taqdiri hech kimni qutbni tadqiq qilishdan qaytara olmadi, aksincha, unga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Hattoki Franklin ekspeditsiyasi va muzdan iborat cho'llarda yo'q bo'lib ketgan admirallarni noumid izlash haqidagi kitoblarni o'qib chiqqanlarning ba'zilari ham undan ta'sirlanib, keyinchalik shimoliy ekspeditsiyalarga jo'nashdi.



Shimoliy Muz okeaniga xos bo'lgan manzara

Jon Franklinning izsiz yo'qolgan ekspeditsiyasi

Jon Franklin – ingliz dengizchisi, Arktika tadqiqotchisi. 1801–1803-yillarda u Shimoliy Amerikaning shimoli-g'arbiy qirg'oqlarini tadqiq qilish uchun ikkita ekspeditsiya tashkil qildi (1819–1822 va 1825–1827-yillarda). Biror Atlantika okeanidan Tinch okeanga Shimoli-g'arbiy o'tish yo'lini ochish to'g'risidagi masala qo'yilganda, deyarli oltmishga kirib qolgan sayyoh ekspeditsiyaga rahbarlik qilish to'g'risidagi taklifga o'spirinlarga xos ishtiyoq bilan rozilik berdi. 1845-yil mayda ekspeditsiya yo'lga chiqdi. Oxirgi marta uning kemasini 1845-yil iyulda kit ovlovchi kema kapitani ko'rghan edi.




Jon Franklin

Franklin ekspeditsiyasi uzoq vaqt izlandi. 1848-yildan boshlab deyarli 20 yil davomida uni izlash uchun birin-ketin bir necha qutqaruvchi guruhlar jo'natildi, ular ilgari noma'lum bo'lgan huddularga kirib borib, xaritaga yangi qirg'oqlarning minglab kilometrlarini kiritdilar. Shimoli-g'arbiy o'tish yo'lining kamida to'rtta mumkin bo'lgan trassasi topildi. Arktika Amerikasining hozirgi vaqtdagi xaritasi halok bo'lgan qutb tadqiqotchisiga qo'yilgan o'ziga xos yodgorlik bo'ldi. Ekspeditsyaning birinchi izlari 1850-yilda Biri orolida, Franklin ekspeditsiyasi turgan joyda topildi.

Jon Franklinning «Qutb dengizi qirg'oqlariga qilingan sayohat haqida hikoyalar» kitobini butun Angliya o'qib chiqdi. Franklin qutbchi Rual Amundsen ibrat olgan sayohatchi-qahramonlardan biriga aylandi.





Angkor-Vat ibodatxonasi


xonalar haqida so'zlab berardilar. Qadimiy g'aroyib binolardan hayratlanishga musharraf bo'lganlar orasida yevropaliklar, arablar, xitoylar va yaponlar bor edi. Anri Muo tomonidan ochilgan, undan keyin Fransis Garnye tashrif buyurgan Angkor-Vat uch pog'onali bo'lib, ko'plab pillapoyalar va yo'laklarga ega. Ibodatxona kengligi 190 metrlik xandaq bilan o'rالgan bo'lib, unda qachonlardir timsohlarni boqib ko'paytirishgan. Angkor-Vat ibodatxonasi devor bilan o'rab olingan. Darvozadan ibodatxonaga olib boradigan keng yo'lak yerdan deyarli bir yarim metr baland qilib ko'tarilgan.

Kxmerlar (kambodjaliklar) – milodning boshlarida Janubiy Hundixitoy tub qabilasining qo'shni Indo-neziya qabilalari bilan asta-sekin birlashib borishi jarayonida vujudga kelgan elat.



Hindixitoyning unutilgan ibodatxonaları

Angkor – bu Kambodja Qirolligida Tonle-Sap ko‘lidan shimalda, Siyem-Reap shahriga yaqin yerda joylashgan ibodatxonalar, saroylar, suv omborlari va tarmoqlanib ketgan kanallardan iborat ulkan majmua. Arxitektura majmuasi tarkibiga XII asrda Suryavarmen II davrida qurilgan shahar-ibodatxona Angkor-Vat ham kiradi. Bu Vishnu xudosiga bag‘ishlab qurilgan ulkan ibodatxona majmuasi – Yer yuzidagi eng yirik ibodat inshootlaridan biri bo‘lib, **Kambodja ramzi** hisoblanadi.



Anri Muo

XIX asr o‘rtalarida fransuz **Anri Muo** Janubi-sharqiy Osiyoga yo‘l oladi. U quruqlik orqali Mekong vodiysi bo‘ylab Xitoyga borish yo‘lini izladi. 1859-yilda uning ko‘z o‘ngida maftunkor manzara namoyon bo‘ldi: Kambodja changalzorlarining qoq yuragida ulkan qurilishlar, kanallar, mineralardan iborat g‘aroyib shahar yastanib yotardi. Bu Angkor, Xudolar shahri, shu yerning asosiy aholisi hisoblangan kxmerlar tomonidan qurilgan Kambodjaning qadimiy poytaxti edi.

1866-yilda fransuz **Dudar Lagre** «an‘anaviy to‘plamlar va asosiy xarobalar joylasheviga muvofiq qadimiy Kambodja chegaralarini aniqlash» uchun ekspeditsiya tashkil qiladi. Lagre ekspeditsiya tugamasdan turib 1868-yilda Yunnone (O‘rta Xitoy)da vafot etadi, ekspeditsiyani boshqa bir fransuz tadqiqotchisi **Fransis Garnye** muvaffaqiyatli ravishda nihoyasiga yetkazdi.

XVI–XVII asrlarda bu yerkorda kelib qolgan kamdan kam say-yohlargina ular uchratgan qadimiy shaharlar va mahobatli ibodat-


XVI–XVII asrlarda bu yerkorda kelib qolgan kamdan kam say-yohlargina ular uchratgan qadimiy shaharlar va mahobatli ibodat-

Livingston o'n yoshidan boshlab to'qimachilik fabrikasida ishlay boshlaganiga qaramasdan, juda ko'p o'qishga va kollejga qatnashga ham ulgurardi. Keyin esa, juda katta qiyinchiliklar bilan o'qish uchun pul to'pladi va universitetning meditsina fakultetiga o'qishga kirdi.



Viktoriya va Merchison sharsharalarini ochgan, Kongo va Zambezi daryolari orasidagi chegarani aniqlagan, Nyasa ko'lini ta'riflab bergen, birinchi marotaba Afrikani g'arbdan sharqqa qarab kesib chiqqan sayyoh Livingston katta shuhrat qozondi va mashhur bo'lib ketdi. U Parij geografik jamiyatining mukofoti va London geografik jamiyatining katta medali bilan taqdirlandi. Mashhur **Viktoriya sharsharasining** yonida buyuk sayyohga yodgorlik o'rnatildi.

D. Livingstonning Viktoriya sharsharasiga ekspeditsiyasi



Devid Livingston – buyuk Afrika tadqiqotchisi

Shotlandiyaning kichik shaharchasidagi choy bilan savdo qiluvchi mayda do'kondorning o'g'li **Devid Livingston** yoshligidan den-gizorti mamlakatlariga qiziqardi. U puli yo'qligi sababli sayohatga chiqishning o'sha vaqtlardagi yagona imkoniyatidan foydalandi, ya'ni u o'ziga shifokorlik va missionerlik (yerli xalqni xristian diniga o'tishga targ'ib qilish uchun o'zga yurtlarga yuboriladigan shaxs) kasbini tanladi.

1840-yilda Livingston ilk marotaba Afrika yerlariga qadam qo'ydi. Dastlab u Janubiy Afrikada ishlab, bechuanlar o'rtaida xristianlikni targ'ib qildi. Biroq sayohat qilishga bo'lgan ishtiyoq unga tinchlik bermadi va 1849-yilda uzoq sayohatga otlandi, bu sayohatning natijasi o'laroq yilning issiq vaqtida qurib qoladigan Ngami ko'li ochildi.

O'zi yurib o'tgan hududlardagi qabilalar ning adovat bilan qarashlariga e'tibor bermasdan Livingston o'z tadqiqotlarini davom ettirdi va Janubiy Afrikadagi eng yirik Zambezi daryosining oqimini kuzatgan birinchi yevropalik bo'ldi.



Uning sayohati ikki yilga yaqin davom etdi, bu vaqt ichida u birinchi bo'lib Afrika qit'asining janubiy qismini janubi-sharqdan shimoli-g'arbgaga qarab kesib chiqdi. Buning ustiga Livingston o'zining missionerlik faoliyatini ham tashlab qo'ymadi. To'g'ri, bu faoliyat boshqacharoq tus oldi: qul savdosining mudhish oqibatlariga duch kelgan Livingston qulchilikka qarshi eng faol va nufuzli kurashchilardan biriga aylandi.

Devid Livingston

anga, boy sharq mamlakatlari qirg'oqlariga yetib borish mumkin deb hisoblardi. 1527-yilda u Genrix VIII ga xat bilan murojaat qilib, unda Shimoli-g'arbiy o'tish yo'lini izlash fikrini bayon qildi. 1530-yilda bir necha ingliz kemalari Nyufaundlend oroli atrofi dan bir necha marta qatnaganlari haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Chamasi ular Atlantika okeanidan Tinch okeanga o'tish yo'lini topishga urinishgan.

Undan keyin **Frobisher** 1576–1578-yillarda, **Devis** 1585–1587-yillarda, **Gudzon** 1610–1611-yillarda, **Baffin** 1615–1616-yillarda Shimoli-g'arbiy o'tish yo'lini izlab ko'rishgan. XVII va XVIII asrlar davomida o'tish yo'lini izlash uchun uyushtirilgan turli ingliz ekspeditsiyalari ko'p martalab Gudzon qo'ltig'i bo'ylab suzganlar. Bering ekspeditsiyasi materiklar o'rtasida bo'g'oz borligini isbotlab bergach, bu sayo-hatchilarda yangi umid uyg'otdi, biroq mo'rt yog'och kemalar ulkan muz qoplamlariga bas kela olmadilar.

Shimoli-g'arbiy o'tish yo'lini birinchi bo'lib 1853-yilda **Robert Mak-Klur** ochgan deb hisoblanadi, biroq u ham muzlarning tifilib qolishi tufayli butun yo'lni bosib o'ta olmagan. Bu yo'l birinchi marta buyuk qutb sayohatchisi **Rual Amundsen** tomonidan 1903–1906-yillarda «Yoa» kemasida muvaffaqiyatli bosib o'tildi.



Rual Amundsen

XVI asr boshlaridagi xaritalardayoq Shimoliy Amerika Yevrosiyo materigidan ajratib ko'rsatilgan. Biroq bu uzoq vaqt davomida amaliy tasdig'ini topmagan. Shimoli-g'arbiy o'tish yo'lini izlash 400 yilga yaqin vaqt davom etgan.





Qutbni tadqiq qilish

Qutblar – sayyoramizning sirli, kam o'rganilgan zonalardir. So'nggi asrlarda eng jasur tadqiqotchilar ularni o'rganishga urindilar. Arktika, Shimoliy qutbga yondosh hudud o'z ichiga Yevroсиyo va Shimoliy Amerika materiklarining yon-atrofini va Shimoliy Muz okeanining deyarli barchasini o'z ichiga oladi. Janubiy qutb sohasi Antarktikadan iborat bo'lib, uning markaziy qismida Yerning eng baland materigi – Antarktida joylashgan.

Shimoli-g'arbiy o'tish yo'llini izlash

Atlantika okeanidan shimoliy dengiz orqali Tinch okeanga borish yo'li mavjud, biroq juda og'ir iqlim sharoitlari tufayli undan hattoki hozirgi davrda ham foydalanish anchagina mushkul. Bu yo'l dengizlar va Kanadaning bo'g'ozlari hamda Arktika arxipelagidan o'tadi.

Angliya XVI asrda sharqqa olib boradigan janubiy dengiz yo'llaridan uzilib qoldi. Janubiy yo'nalishlarda Ispaniya va Portugaliya hukmronlik qildi. Yirik savdogar, ingliz **Robert Torn** Amerika materigini **shimol tomondan aylanib o'tib, Atlantika okeanidan Tinch oke-**

*Shimoli-g'arbiy
o'tish yo'llini
izlagan kapitan
Tomas Jeyms
kitobidagi
xarita*



Nils Nordenhild Rus geografik jamiyatining Katta oltin medali bilan mukofotlandi. Arxipelag, uchta qoʻltiq, burun va muzlik uning nomi bilan ataldi.



qilib qoʻydi. 1878–1879-yillarda «Vega» paroxodida u ilk marotaba Shimoli-sharqiyo oʼtish yoʼli orqali toʼgʼridan toʼgʼri (yoʼlda qish vaqtida toʼxtab oʼtgan holda) Atlantika okeanidan Tinch okeaniga suzib borib, Suvaysh kanali orqali Shvetsiyaga qaytdi (1880) va ilk marotaba shu tarzda butun Yevropani aylanib oʼtdi.

Nils Nordenhild ekspeditsiyasining muvaffaqiyatga erishishi ga yana bir sabab, uning ekspeditsiyasini rus oltin konlari xoʼjayini **Aleksandr Sibiryakov**, Shvetsiya **qiroli Oskar** va shvetsiyalik kapitalist **Oskar Diksonlar** mablagʼ bilan taʼminlab turishdi, keyinchalik Karsk dengizidagi Yenisey qoʼltigʼida joylashgan orolga Oskar Dikson nomi berildi.



Yangi Yer – Shimoliy Muz okeanidagi orollar guruhi



Shimoli-sharqiy o'tish yo'lini izlash

Shimoli-sharqiy o'tish yo'li – bu Atlantika okeaniga Yevropa va Osiyoning shimoliy qirg'oqlari bo'ylab Tinch okeanga borish yo'lidir. 1548-yilda Londonda «Noma'lum, hatto hozirgacha ham dengiz orqali yetib borilmagan mamlakatlar, yerlar, orollar, davlatlar va o'lkalarni ochish uchun savdogar tadbirkorlar jamiyiati» tashkil qilindi. Uning asosiy maqsadlaridan biri Yevrosiyo atrofida shimoli-sharqiy yo'lini topishdan iborat edi.

1553-yilda ingliz **Xyu Uilloubi** shimoliy Yevropaga o'tish yo'lini izlash uchun tashkil qilingan ekspeditsiyaga rahbarlik qildi. U muvaffaqiyatsizlikka uchradi, biroq kapitan yordamchisi **Richard Chensler** bu dengiz yo'li orqali Rossiyaga yetib borishga muvaffaq bo'ldi.



Nils Nordenshild

1556-yilda **Stiven Barrou** shimoliy yo'l orqali sharqqa yuborildi. Tajribali ingliz dengizchisi Arktika sharoitida noshud o'quvhidet taassurot qoldirardi. Qirg'oq bo'ylab sekin-asta sharqqa qarab harakatlangan Barrou Yangi Yerning janubig'arbiy qirg'oqlaridagi orolga yetib bordi, shundan keyin oldinga qarab deyarli siljimadi.

Inglizlardan so'ng Shimoli-sharqiy o'tish yo'lini izlashga gollandlar kirishdi. 1594-yil iyunda Gollandiyadan shimolga qarab uchta kemada ekspeditsiya yo'lga otlandi, bu kemalardan birini amsterdamlik **Villem Barends** boshqarib bordi. Yangi Yer ortidan u muzdan soqit bo'lgan dengizni topishni mo'ljal qildi biroq u ham uzoqqa bora olmadi va qishlash vaqtida halok bo'ldi.

Uzoq o'n yillar davomida hech kim Shimoliy Muz okeani orqali o'tishga urinmay qo'ydi. Biroq XIX asr o'rtalarida mashhur shved qutbchisi **Nils Nordenshild** (1832–1901) buni o'z oldiga maqsad

Uzoq o'n yillar davomida hech kim Shimoliy Muz okeani orqali o'tishga urinmay qo'ydi. Biroq XIX asr o'rtalarida mashhur shved qutbchisi **Nils Nordenshild** (1832–1901) buni o'z oldiga maqsad

Kichik yelkanli kema Chelyuskin burunini aylanib o'tdi va 1893-yil 25-sentabrda suzib yurgan ulkan muz bo'lagiga muzlab yopishib qoldi. Nansen ekspeditsiyasining muz bilan birga ko'chib yurishi $78^{\circ}50'$ sh.k. da boshlandi.

Biroq muz olim mo'ljallaganidan ko'ra janubroqqa qarab harakat qildi. Nansen uning qayig'i qutbdan uzoqlashib ketayotganligini to'xtatib bo'lmasligini tushunib yetgach, mo'ljallagan joyiga itlar qo'shilgan chanada yetib olishga qaror qildi. U $86^{\circ}14'$ sh.k. gacha (o'sha vaqt uchun rekord ko'rsatkich) yurib borishga muvaffaq bo'ldi, so'ngra Franslosif yerida qishni o'tkazdi. Nansen uch yil Arktikada bo'lib, yurtiga ingliz qutb ekspeditsiyasi bilan birga qaytib keldi.

Nansen ekspeditsiyasi Shimoliy Muz okeani markaziy qismi jumbog'iga javob topdi. U yerdan nimalar topiladi deb kutishmagandi deysiz – ulkan vulqondan tortib muzliklar orasida yo'qolgan sirli Giperboreya mamlakatiga qadar! Nihoyat, bu yerda chuqurligi 3000–3840 m bo'lgan dengiz havzasi joylashganligi aniqlandi.


Ko'chib yuruvchi muzlarda joylashtiriladigan ilmiy stansiyalardan foydalangan holda Shimoliy qutb zonalarini o'rganish g'oyasi Nansenqa taalluqli. 25 ta geografik obyekt uning nomi bilan atalgan.



F. Nansen evenklarni Sibir indeyслари deb atadi

Olim va sayyoh Frityof Nansen

Mashhur Arktika tadqiqotchisi **Frityof Nansen** (1861–1930) o'z ekspeditsiyasiga juda puxta tayyorgarlik ko'rib, uning mayda-chuyda detallarigacha e'tibor qaratdi. Tarixda birinchi marta Grenlandiyani kesib o'tishga tayyorgarlik ko'raturib u yengil chang'i, qayishqoq chana, qulay kiyimbosh va hattoki qahraton sovuqda ham ovqat tayyorlash mumkin bo'lgan kastrul ixtiro qildi. Chang'ida va it qo'shilgan chanalarda Grenlandiyaning janubiy qismini bosib o'tdi.



Frityof Nansen

Nansen muzlarda ko'chib yurish orqali Shimoliy qutbga borishga qaror qildi. Buning uchun u yelkanli va bug' dvigatelli hayratomuz «**Fram**» kemasi ni yasadi. Kema dumaloq, o'rtasidan bo'lingan tuxumga o'xshash shakli tufayli muz uni siqib boshlaganda u yuqoriga itarib chiqarib yuborilardi. Nansen shunday deb yozgandi: «Biz yer o'qining shimoliy uchini tashkil qiladigan matematik nuqtani izlash uchun ketayotganimiz yo'q; bu nuqtaga yetib borishning o'zi kamlik qiladi, biz dunyoning qutbni o'rab turgan, kam o'rganilgan qismida kuzatuvarlar o'tkazishimiz kerak».

Frityof Nansen nafaqat sayohatchchi, balki olim – geograf, okeanograf, zoolog ham edi. U jamoat arbobi sifatida ham juda mashhur bo'lgan. 1922-yilda unga Nobel mukofoti topshirilgan.



Oq ayiq –
yer yuzidagi
eng yirik
yirtqich
hayvon



ko'kka ko'tarilib bulutlar orasida g'oyib bo'ldi. Oradan ikki kun o'tib, 88° sh. k. ka borib yetgan havo shari bortidan yuborilgan pochta kabutari «Bortda hammasi joyida» degan xabar olib keldi. Arktika muzliklari uzra parvoz uch kun davom etdi. 14-iyulda odamlar ucha olish qobiliyatini yo'qotgan sharni tark etishga majbur bo'lishdi. Ular bu vaqtida Shpitsbergandan 192 mil, Frans-losif yeridan 210 mil uzoqlikda turar edilar. Kiyim-kechak, asbob-anjom bilan yaxshi ta'minlanmagan, oziq-ovqat zaxirasi deyarli tugagan sayohatchilar oktabrning oxirlarida orolchaga yetib borishdi, biroq bu yerda ular tez orada oq ayiqlarning go'shtida bo'ladijan parazitlar keltirib chiqaradigan kasallikdan halok bo'ldilar.

1909-yil 6-sentabrda amerikalik **Robert Piri** Labrador yarimorolidan jo'nab 1909-yil 6-aprelda qutbga yetib borganligini xabar qildi. Biroq uning yurtdoshi **Frederik Kuk** 1909-yil 1-sentabrda qutbga 1908-yilda yetib borganligi haqida telegramma jo'natdi. Xo'sh, ularning qay biri haq? Aslida Shimoliy qutbni kim ochgan edi?

«Arktika» so'zi yunon tilida «ayiq» ma'nosini bildiruvchi so'zdan kelib chiqqan. Shimoliy qutb sohasi nomi ikkita shimoliy yulduzlar turkumi: Katta Ayiq va Kichik Ayiq so'zlaridan olingan.






«Ulkan mix» sari kimo'zar poygasi

Eskimoslarning so'zi bilan «katta mix» deb ataladigan Yerning cho'qqisiga birinchi bo'lib yetib borishni ko'plab qutbchilar orzu qilishgan. Biroq **Jorj Ners**ning Britaniya ekspeditsiyasini muzliklar to'xtatib qo'ygan bo'lsa, norvegiyalik Nansenning muzliklar bilan birga suzishi ham uning «Fram» kemasining muzlab qolishi bilan nihoyasiga yetgan. Qutbga faqatgina muz ustidan yurib borib yoki havo orqali yetib borish mumkinligi ayon bo'ldi.

1897-yilda ishtiyoq bilan to'lib-toshgan, go'yoki Jyul Vern romanlaridan chiqib kelgan shved muhandisi **Solomon Andre** qutbga havo sharida borishga urinib ko'rdi. Uning «**Burgut**» deb atalgan **havo shari** ipak yelkanlar va kanopdan to'qilgan qayiqlar, chanalar va pochta kabutarlari solingan qafaslar va hattoki xavfsizlik nuqtayi nazaridan (shar oson alanga oladigan vodorod bilan to'ldirilgan edi) gondoladan 8 metr pastga tushirib qo'yilgan «oshxona apparati» bilan jihozlangan edi.

Biroq shar yerdan ko'tarilishga ulgurmasdan turib shiddatli shamol rul arqonlarini uzib yubordi. Boshqarib bo'lmaydigan holga keilib qolgan shar gondolasiga dastlab suv to'lib qoldi, keyin u birdaniga

*Shimoliy
Muz okeani*



lingan tabiat kuchlari ustidan inson g'abalabasini his qilishgina kishiga mammuniyat bag'ishlaydi».

Shimoliy qutbni bиринчи bo'lib ochganligini da'vo qilgan Piri Kukni firibgarlikda aybladi. Barcha ustunlik – mashhurlik, hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ko'p sonli nufuzli homiy larning bari Piri tarafida edi. AQSh kongressi «qutbni ochilishi to'g'risidagi ish»ni ko'rib chiqib, Kukni shon-shuhratga intilgan firibgar deb e'lon qildi.

Bugungi kunda Piri bilib turib, faktlar ni buzib ko'rsatganligiga shubha qolmadı. Uning shaxsiy arxividagi materiallaridan ma'lum bo'lishicha, u navigatsiya xatolari va oziq-ovqat yetishmaganligi sababli **qutbga yetib bora olmagan**.

- Piri va Kukning Shimoliy qutbda bo'lganlarini tasdiqlovchi inkor etib bo'lmaydigan dalillar yo'q. Ularning bunga erishganlari ehtimoldan ancha uzoq. Biroq Kuk u yerda bo'ldim deb haqiqatan ham adashgan bo'lishi mumkin, Piri esa oldindan ma'lum noaniq kuzatuv usullaridan foydalangan, barcha malakali guvohlarni yo'q qilgan, shuningdek, uning raqibini yolg'onchi deb topishlari uchun qo'lidan kelgan barcha chorani ko'rgan.



XX asrda Shimoliy qutbni egallash uchun samolyotlar yo'liga chiqdi

1926-yil 12-mayda Shimoliy qutb ustidan ilk marta havo kemasi uchib o'tdi. Bu bortida 16 nafar ekspeditsiya a'zolari bo'lgan «Norvegiya» dirijabli edi. Ular orasida norvegiyalik Rual Amundsen ham bor edi.





Shimoliy qutbni aslida kim ochgan edi?

Birmuncha vaqt Shimoliy qutbni **Robert Piri** ochgan deb hisoblab kelindi. Unga admiral unvoni berilib, medal va Faxriy legion ordeni topshirildi. Piri – qutb tadqiqotlari tarixidagi o‘z ishiga astoydil berilgan va muvaffaqiyatga erishgan, bir vaqtning o‘zida eng yoqimsiz taassurot qoldirgan kishilardan biri. U layoqatli, o‘z maqsadi yo‘lida mardonavor harakat qiladigan, qat’iyatli, o‘jar, tashkilotchi bo‘lishi bilan birga shuhratparast, dong taratishga ishtiyoqmand kishi ham edi.

Frederik Kuk, kambag‘al nemis imigrantlarining o‘g‘li, o‘qish uchun mustaqil pul ishlab topib shifokorlik kasbini egalladi. Arktikaning bu ikkala tadqiqotchisi tamomila ikki xil odamlar bo‘lishgan. Kuk shuhrattalab emasdi: «Maqsadga erishishning o‘zi emas, balki unga erishish yo‘lida uchraydigan to‘sislarni yengib o‘tish kishiga haqiqiy lazat bag‘ishlaydi, – deb yozgan edi u. – ...Men davlatdan izzat-ikrom ham, orden-medal ham, pul ham talab qilmaganman... Inson aqlining tantana qilganligi, shu paytgacha yengib bo‘lmaydi deb hisoblab ke-

*Muzga yopishib qolgan kemada
dengiz uzra ko‘chib yurish*



Sedov tufayli ular qishdan eson-omon chiqib olishdi. Kemada kutubxona, pianino va hattoki grammofongacha bor edi. Sedov itlar qo'shilgan chanada Yangi Yerning g'arbiy qirg'oqlarini kezib chiqib, tadqiq qilar va ta'riflab berardi. Guker orollarida o'tgan ikkinchi qish juda og'ir o'tdi. Yoqilg'i va oziq-ovqat tugay deb qolgan edi. Singa barchani, shu jumladan, Sedovni ham jarohatladi, biroq u ruhini tushirmadi va boshqalarning ham ruhini ko'tarishga harakat qildi.

1914-yil 15-fevralda Sedov ikkita hamrohi bilan (matroslar G. V. Linnik va A. M. Pustotniy) itlar qo'shilgan uchta chanada qutbga qarab yo'l oldi. U og'ir kasal bo'lishiga qaramasdan, matroslar unga rahmlari kelib orqaga qaytib ketmasliklari uchun kompasni qo'lidan qo'ymasdi.

1914-yil 5-martda Georgiy Yakovlevich Sedov Rudolf orolidan 3 km janubda o'z hamrohlari qo'lida jon berdi. Matroslar uni orolda dafn qildilar, uning qabri ustiga toshlardan tepalik yasadilar va uning tepasiga Shimoliy qutbga qadash uchun o'zi bilan olgan bayroqni o'rnatib qo'ydilar.

Yangi yerdagi cho'qqi va ikkita qo'litiq, muzlik va Frans-losif yeridagi burun, Barens dengizidagi orol, Antarktidagi burun qutb taddiqotchisi G. Y. Sedov nomi bilan atalgan, muzyorar paroxodga «Georgiy Sedov» nomi berilgan.



It qo'shilgan chana

Sedov ekspeditsiyasi Shimoliy qutbga

Georgiy Yakovlevich Sedov 1877-yilda tug'ildi. U bolaligidanoq qat'iyatliligi va jasurligi bilan ajralib turardi, maktabda esa old o'quv-chilardan biri edi. Shturmanlik attestatini olgach u Peterburgda dengiz korpusining to'liq kursini o'tash uchun imtihon topshirib, poruchik darajasini oldi va Bosh gidrografik boshqarmaga xizmatga kirdi. Bu vaqt Shimoliy qutbga ekspeditsiya ortidan ekspeditsiya jo'nagan paytlar edi. Qutbga sayohat qilishni Sedov ham orzu qilar edi.



Georgiy Yakovlevich
Sedov

1912-yil 27-avgustda «**Ilohiy Foka**» kemasida Arxangelskdan Shimoliy qutbga Sedov rahbarligidagi birinchi rus ekspeditsiyasi jo'nab ketdi. Birinchi kunlardanoq kema shiddatli po'rtanaga tushib qoldi. Sedov o'zini qahramonlarcha tutdi: u muzlab qolgan kiyimda kapitanlik supachasida soatlab turardi. Matroslar charchoqdan oyoqlarida tura olmay qolganlarida Sedov ofitserlarga ularni almashtirishga buyruq berardi.

«**Ilohiy Foka**» Yangi Yerning g'arbiy qirg'oqlarida muzlar orasiga qisilib qolib, shu yerda bir yilga yaqin qolib ketdi. G'ayrati to'lib-toshgan, tabiatan quvnoq, har xil narsalarni o'ylab topishga usta

P. P. Semyonov-Tyan-Shanskiy shunday yozgan edi: «*Shimolning qutb mamlakatlarini Rossiya dan boshqa yana kim tadqiq qilishi kerak? Xaritaga razm soling... Axir, Shimoliy qutb doira-sining to'rtdan uch qismi bizning mamlakatga tutashib ketgan*».



14-dekabrda ochganligi haqidagi yozuv qoldirilgan chodirni topishdi.


Skott qutbga ingliz bayrog'ini qadadi, so'ngra bir hafta davomida kuzatuvlar olib bordi va ilmiy namunalar yig'di. Ortga qaytishda og'ir charchoq va kislorod yetishmasligi natijasida ekspeditsiyaning barcha a'zolari halok bo'ldi. Uning uch a'zosи, shu jumladan, Skott ham bazadan bor-yo'g'i 11 mil masofada turganlarida va ularda ikki kunga yetgulik oziq-ovqat, bir kunlik yoqilg'i qolganda bo'ron boshlanib qoladi, va bo'ron to'qqiz kun davom etadi. O'layotgan, muzlab qolgan Robert Skott o'zida aniq-ravshan qilib bitilgan o'n ikkita xat yozishga kuch topa oladi: bu xatlar rasmiy shaxslarga va eng yaqin odamlariga atab yozilgan edi. U shunday deb yozgan edi: «**Biz har holda Qutbda bo'ldik va munosib ravishda o'lyapmiz**».



Robert Skott

Rual Amundsen 1911-yil 20-oktabrda qutb safariga yo'l olgandi. U nafaqat o'z niyati haqida Skottga xabar bergen, balki o'z raqibiga yordam berishga tayyorligini ham bildirgandi. Amundsen unga o'zining grenlandiya laychalarini taklif qildi. Kim biladi deysiz, agar ingliz ekspeditsiyasi a'zolari uning bu taklifini rad etmasdan, kuchli, chidamli va yaxshi o'rnatilgan kuchuklarini qabul qilganlarida qutbga qarab poyga nima bilan tugagan bo'lardi?

Amundsenning Janubiy qutbga tanlagan marshru-ti Skott tanlagan yo'ldan 100 km ga qisqaroq edi. Bu yo'l albatta o'gir bo'lib chiqdi: Ross muzligidagi ikkita yoriqdan o'tish va muzlikidan mashaqqat bilan ko'tarilishga to'g'ri keldi.



Janubiy qutbning ochilishi

1901-yilda **Robert Skott** rahbarligidagi qutb ekspeditsiyasi Britaniyaning «Diskaveri» kemasida Antarktida qirg'oqlariga qarab yo'lga chiqdi. Mak-Merdo bazasiga borilayotgan vaqtida havo kemasi sinovdan o'tkazildi. Ma'lum bo'lishicha, u uzoq parvozlar uchun yaroqsiz ekan. Lekin shunga qaramasdan, aynan Robert Skott Antarktida osmoniga ko'tarilgan birinchi kishi bo'ldi.

1902-yil bahorda Skott ilk marotaba qutbga yo'l oldi, biroq u faqatgina $82^{\circ}17'$ kenglikkacha yetib borishga muvaffaq bo'ldi, xolos.


Skotning keyingi ekspeditsiyasiga (1910–1912) yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan bo'lsa-da, u fojiali tugadi. Qutbgacha bo'lgan 3 ming km yo'lni va ortga qaytishni 145 sutka ichida bosib o'tish mo'ljal qilingandi. Oziq-ovqat zaxiralarini olib ketish uchun motorli chana, itlar va past bo'yli, lekin chidamli poni otlaridan foydalanishga qaror qilindi. Biroq eng katta chanalarda yuk tushirilayotgan paytda ular muzni yorib yubordi va chanalar cho'kib ketdi, o'n ikkita otdan to'qqiztasi va o'ttiz beshta itdan o'ntasi qutbga yurish boshlanmasdan turib nobud bo'ldi.

Omadsizlik va ko'ngilsizliklar inglizlarni tark etmadidi. Ular nihoyat 1912-yil 18-yanvarda ming mashaqqatlar bilan qutbga yetib borganlarida u yerda norvegiyalik **Rual Amundsenning Janubiy qutbni 1911-yil**

*Antarktida
manzarasi
go'zalligi va
ulug'vorligi bilan
lol qiladi*




Antarktida.
Materikning
xaritasiga



1928-yil 18-iyunda Rual Amundsen «Latam» gidrosamolyotida Nobile ekspeditsiyasini izlash uchun yo'lga chiqdi. Gap shundaki, Nobilening «Italiya» dirijabli Shimoliy Muz okeanida halokatga uchragan edi. Qidiruv vaqtida **Amundsen** ekipajning beshta a'zosi bilan birga **Barens dengizida halok bo'ladi**. Nobile esa shved uchuvchisi Lundborg tomonidan qutqariladi, **italiyalik konstruktoring ekspeditsiyasining tirik qolgan a'zolari «Krasin» muzyorar kemasi bortiga chiqarib olinadi**.

Norvegiyaning milliy qahramoni, mashhur sayyoh Rual Amundsen nomi dengiz, qo'lтиq, muzlik, Amerikaning Antarktidadagi ilmiy stansiyasi («Amundsen-Skott»), Shimoliy Muz okeanidagi qo'lтиq va havzaga berilgan.

O'limidan bir necha oy oldin, jurnalistlarning Arktika va Antarktikadagi muz cho'llari haqidagi savollariga javob bera turib Amundsen shunday degan edi: «Siz u yerlar qanchalik jozibador ekanligini bilmaysiz, men o'sha yerlarda o'lishni xohlar edim».



Jasur dengizchilar avlodi

Skandinaviyalik jasur dengizchilar avlodi – norveg **Rual Amundsen** 1872-yilda tug'ilgan. Uning ota-bobolari ham dengizchi bo'lishgan, u yoshligidan Arktikaga sayohat qilishni orzu qilgan va o'z orzusini ro'yobga chiqarishga muvaffaq bo'lган.

1894–1899-yillarda u turli kemalarda matros va shturman sifatida xizmat qilgan. 1903-yildan boshlab keng dovrug taratgan bir qator ekspeditsiyalarini amalga oshirgan. Amundsen qutb ekspeditsiyalarining muvaffaqiyatsizlikka uchrashining asl sabablaridan biri – qutbchilarining kemalarni boshqarishni bilishmasliklari ekanligini bilardi. U kapitanlik unvoni uchun imtihon topshiradi, so'ngra o'z oldiga qo'ygan murakkab vazifani muvaffaqiyatli hal qiladi: dengizlar va Kanadaning Arktika arxipelagidan o'tib Atlantika okeanidan Tinch okeanga borgan (1903–1906). Keyingi vazifa – Shimoliy qutb, biroq u ekspeditsiyaga tayyorgarlik ko'rayotganida amerikaliklar u yerga yetib borganligi haqidagi xabar yetib keladi. Shundan keyin u Janubiy qutbni zabit etishga kirishadi va unga ingliz Robert Skottdan bir oy oldin –

1911-yil 14-dekabrda yetib boradi.

1918-yil yozda jasur sayyo Shimoliy dengiz yo'li orqali Sibir qirg'oqlarini bosib o'tadi va **insoniyat tarixidagi Shimoliy Atlantikadan Tinch okeanga ikkala yo'lni ham kemada bosib o'tgan birinchi kishi bo'ladi**.

1926-yilda, to'rt yillik tayyorgarlikdan so'ng u «Norvegiya» dirijablida Shimoliy qutb orqali **Shpitsbergdan Alyaskaga uchib o'tadi**. Bu dirijabl italiyalik konstruktur va qutb sayohatchisi Umberto Nobile tomonidan yaratilgan edi. Dirijablda hammasi bo'lib 16 kishi, shu jumladan, parvoz rahbarlari Nobile va Amundsenlar bor edi.



Rual Amundsen



Antarktidadagi
ilmiy-tadqiqot
stansiyalaridan
biri

Makta 281 yilliklarda harorat ancha ko'tarilib, muzliklar chekina boshlagan bo'lsa, Antarktidaning sharqiy va markaziy hududlarida buning aksi, ya'nu havoning sovub ketishi kuzatilmogda. 1985-yilda qit'a ustida «ozon tuynugi»ning ochilishi olimlar va jamoatchilikning diqqatini tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va iqlimning xavfli o'zgarishlariga olib keluvchi faoliyatiga jalb qildi. Hozir, XXI asr boshlariga kelib, «Ozon tuynugi»ning kengayishi deyarli to'xtatildi. Demak, iqlimning isishi haqidagi ommalashib ketgan nazariyani ehtimol tubdan qayta ko'rib chiqishga to'g'ri kelar?

Antarktidani o'rGANISH uchun Xalqaro qo'mita tashkil etildi, u Antarktidani tinchlik va do'stlik materigi deb e'lon qildi.

«Arktikaning aksi» degan ma'noni anglatuvchi Antarktida nomini britaniyalik okeanograf va tabiatshunos Jon Myorrey taklif qilgan. 1886-yilda u birinchi bo'lib janubiy materikning konturlarini xaritaga kiritdi.





Sayyoradagi so'nggi oq dog'lar

XX asrning ikkinchi yarmiga qadar Antarktida deyarli o'rganil-madi. 1950-yillarda esa ko'plab mamlakatlarning olimlari bu materikka diqqatlarini qaratishdi. Antarktidada ko'plab qutb stansiyalari paydo bo'ldi, bir necha ilmiy ekspeditsiyalar o'tkazildi va doimiy kuzatuv tarmog'i tashkil etildi.

Birinchi sobiq ittifoq antarktik posyolkasiga birinchi rus antarktik ekspeditsiyasi shlyuplaridan biri «**Mirniy**» nomi berildi. Unga 1956-yilda asos solindi. Undan sal keyinroq Banger vo-hasida – Oazis stansiyasi va kontinent ichidagi «Pionerskaya», «Komsomolskaya», «Sovetskaya», Borib bo'Imas Qutb va «Vostok» stansiyalari birin-ketin ishga tushdi. O'z ishini to'xtatgan stansiyalar o'rniغا yangilari qurildi. «Vostok» stansiyasi atrofida qadimiy ko'l topoldi.

Antarktida – sayyoraning eng yuqori qit'asi (o'rtacha balandligi 2040 m) bo'lib, eng yirik chuchuk suv zaxiralariga ega. Materikning iqlimi ham jumboqli. Agar Antarktidada yarimoroli zonasida oxirgi o'n

Antarktidadagi pingvinlar





Kuk Jeyms 60, 66

L

Lagre Dudar 72

Lazarev Mixail

Petrovich 60

Lisyanskiy Yuriy

Fyodorovich 58

Livingston Devid 74

M

Madeyra 29

Magellan bo'g'ozi 41

Magellan Fernan 40

Makka 24

Mak-Klur Robert 77

Maldiv orollari 24

«Marko Polo
kitobi» 21

Mavrlar 28

M. Bexaym
globusi 30

Merkator Gerard
29, 38

Mirniy 92

Molukka orollari 40

Muo Anri 72

N

Naddod 15

Nansen Frityof 80

Ners Jorj 82

Nordenshild Nils 78

Normannlar 14

O

Olovli Yer 41

Oltin O'rda 20, 24

Orelyana Fransisko

de 48

Oxedo Alonso de 38

Oykumena 4

P

Piri Robert 83, 84

Pisarro Fransisko 47

Polo Marko 20

Prjevalskiy Nikolay
Mixaylovich 64

Prjevalskiy oti 65

Q

Qizil dengiz 24

R

Reyli Uolter 49

Rim 12

Rixtgofen
Ferdinand 23

S

Samarqand 22

Sedov Georgiy

Yakovlevich 86

Semyonov Pyotr

Petrovich 62

Sirli Tule oroli 9

Skandinaviyaliklar

14

Skiflar 7

Skott Robert 88

Sug'diyona 11, 22

T

Tanjer 24

Tasman Abel 53

Tenochtitlan 44

Teyvi, Diyego de 26

Timbuktu 25

Torn Robert 76

Torres Luis Vaes 53

U

Uilloubi Xyu 78

V

Valdzemyuller
Martin 38

Vegener Alfred 17

Velasko Pedro de 26

Vespuuchchi
Amerigo 38

Vestgotlar 28

Vikinglar 14

Viktoriya
sharsharasi 75

Viktoriya
yarimoroli 71

X

Xorazm 22

Y

Yetti shahar oroli 28

Yulduzlar jadvali 19

Yulyi Sezar 13

Z

Zanzibar 24

Ch

Chensler Richard 78

Sh

Shumerlar 5

Ko'rsatkich

Qadrli do'stim! Quyida Siz ensiklopediyadan o'qishingiz mumkin bo'lgan barcha odamlar, hodisalar va faktlar nomi alifbo bo'yicha joylashtirilgan. Raqamlar sizni qiziqtirgan ma'lumot joylashgan sahifa raqamini bildiradi.

A

- Al-Beruniy, Abu Rayhon 18
- Aleksandr (Iskandar Maqduniy) 10
- Aleksandriya 11
- Amundsen Rual 77, 89, 90
- Andre Solomon 82
- Angkor 72
- Antarktida 51, 92
- Aristotel 10
- Ataulpa 46

B

- Baffin Uilyam 77
- Baqtriya 11, 22
- Barens Villem 78
- Barrou Stiven 78
- Belalkasar Sebastian 48
- Bellinsgauzen Faddey Faddeyevich 60
- Bering Vitus 56
- Berrio Antonio de 49
- Bobil 11
- Bonplan Eme 68
- Buhoro 22
- Buyuk ipak yo'lli 22

D

- Dehli 24
- Devis Jon 77
- Diash Bartolomeu 34
- Dikson Oskar 79
- Dimen Van 53
- Dreyk bo'g'ozi 51
- Dreyk Frencis 50

E

- Elkano Sebastian 43
- Erik Sariq 16
- Espanolo 33

F

- Finikiyaliklar 4
- Franklin Jon 70
- Frobisher Martin 77

G

- Gaiti orollari 33
- Gama Vasko da 34
- Gardar 15
- Garnye Fransis 72
- Genrix dengiz sayyohi 26
- Gudzon Genri 77

Gumboldt

Aleksandr 68

I

- Ibn Battuta 24
- Idrisi, Abu-Abdulla-Muhammad 28
- Islandiya 15

J

- Janubiy qutb doirasi 60

K

- Kabot Jon 36
- Kambodja ramzi 72
- Kamchatka ekspeditsiyalar 56, 57
- Kartye Jak 54
- Katta Nyufaundlend sayozligi 37
- Ketsalkoatl 44
- Kolumb Xristofor 26, 32
- Kortereal Juan 30
- Kortes, Ernan 45
- Kruzenshtern Ivan Fyodorovich 58
- Kuelu Gonsalu 39
- Kuk Frederik 83, 84

O'RTA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN

Yoshga oid toifasi belgisi 7+
«Bolalar uchun ensiklopediya» seriyasi

V. I. MAGIDOVICH
va boshqalar

GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR

Tuzuvchi T. V. GRIGORYEVA

Rassomlar: O. K. PARXAYEV, V. I. PETENEV va boshq.

Tarjimon O. AZIMOVA

Mas'ul muharrir R. ZAPAROV

Muharrir A. AKBAROV

Badiiy va texnik muharrir Ye. KRASNIKOVA

Musahih S. NIYAZOVA

Sahifalovchi Ye. PAVLOVA

«DAVR NASHRIYOTI» MChJ

davrbooks@gmail.com

www.davrbooks.uz

100129, Toshkent, A. Navoiy ko'chasi, 30

Litsenziya raqami № Al 308

Bosishga ruxsat etildi 25.02.2013. Qog'oz bichimi 70x90/16.

PragmaticaC garniturasi. Ofset bosma usuli. Sharqli b. t. 7,02.

Nashr t. 7,6. 1250 nusxada chop etildi.

Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma №257-21

«CREDO PRINT GROUP» MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

V. I. Magidovich










GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR / Bolalar uchun ilmiy-ommabop nashr. — T.: «DAVR NASHRIYOTI» MChJ, 2013. — 96 b. — (Bolalar uchun ensiklopediya).

Kitobda muhim geografik kashfiyotlarning tarixi bayon qilingan. Yosh kitobxonlar oykumena nimaligini, kashfiyotlar qaysi mintaqadan boshlanganligini, Ameri-kaga nima uchun Amerigo Vespuuchchi nomi berilganligini, sayyoramizning qutblari qanday kashf etilganligini va boshqa ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni bilib oladilar.

BOLALAR UCHUN
ENSIKL^OPEDIYA

GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR

Seriyada quyidagi kitoblar chop etildi:



ISBN: 978-9943-4089-68



9 789943 408968